


O'SPIRINLARDA KASBIY TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI



NORIMBETOV TURG'UNBOY BUHAROVICH
NAZAROVA MARG'UBA GULAMOVNA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
OLMALIQ FILIALI

NORIMBETOV TURG'UNBOY BUHAROVICH
NAZAROVA MARG'UBA GULAMOVNA

***O'SPIRINLARDA KASBIY
TASAVVURLAR
SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK ASOSLARI***

***MA'RUZA MASHG'ULOTIDA FOYDALANISH UCHUN
USLUBIY QO'LLANMA***

TOSHKENT – 2021

MUNDARIJA

KIRISH.....	6-11
-------------	------

I-BOB. Kasbiy tasavvurlarni shakllanish muammosini psixologik adabiyotlarda o'rganilganligi

I.1 SHarq allomalari asarlarida muammoni ilmiy yoritilganligi.....	12-16
I.2. Xorij psixologlari tadqiqotlarida kasbiy tasavvurlarni shakllanish muammosi.....	16-29
I.3 Kasb tanlash, kasbga yo'naltirish muammolari o'zbek psixologlaritadqiqotlarida.....	29-35

II-BOB. Kasbiy tasavvurlarni shakllanishini amaliy jihatdan o'rganish

II.1. Kasbiy tasavvurlar va shaxs yo'nalganligi o'rtasidagi munosabat.....	36-39
II. 2. Kasbiy tasavvurlarni shakllanganligini diagnostika qilish.....	40-44
II.3. Kasbiy ustanovkalar va kasbiy tasavvurlarning o'zaro munosabati.....	44-46

UO‘K 159.9:331.54
KBB 88.8

Norimbetov T.B. va Nazarova M.G. **O‘spirinlarda kasbiy tasavvurlar shakllanishining psixologik asoslari.** Ma’ruza mashg‘ulotida foydalanish uchun uslubiy qo‘llanma. – Toshkent.: Zamin nashr, 2021. -68.

Uslubiy qo‘llanma o‘spirinlarda hozirgi globallaShuv va ilg‘or investitsiyalar sharoitida kasbiy tasavvurlar shakllanishining eksperimental tahlil qilish hamda ularga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu uslubiy qo‘llanma kollej va litsey o‘quvchilari hamda oliy o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, kasbiy tasavvurlar shakllanishining psixologik omillarini tuShuntirishga qaratilgan qo‘shimcha manbadir. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun.

Mazkur uslubiy qo‘llanma TDTU Olmaliq filiali o‘quv-uslubiy kengashida (2019 yil “30 mart” 7-sonli bayonnoma bilan) tasdiqlandi va nashrga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

TDTU Omaliq filiali “Ijtimoiy – gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti v.v.b., p.f.n. Norimbetov T.B. va Nazarova M.G.

Taqrizchilar:

TDTU Omaliq filiali “Ijtimoiy – gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti, p.f.n. B.I. Qayumov;

O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti “Psixologiya kafedrası” dotsenti, p.f.n. A.I. Rasulov

ISBN 978-9943-7425-4-3

©Zamin nashr, 2021.
© Norimbetov T.B. va
Nazarova M.G., 2021.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, globallashuv jarayonining yuzaga kelishi va XXI asr axborot asri bo'lganligi sababli ta'lim va tarbiya fanlari oldiga alohida vazifalarni hal qilishni qo'ya boshladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash, ta'lim berish bilan bir qatorda, ularda o'zlari tanlagan kasblari bo'yicha kasbiy tasavvurlarni shakllantirish hozirgi kundagi jamiyatimizning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga ko'tarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. "Biz o'z oldimizga qanday vazifani qo'ymaylik, qanday muammoni echish zarurati tug'ilmasin, gap yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday kadrlar tarbiyalashimizga bog'liq".

Jamiyatni ma'naviy yangilash birinchi navbatda yosh avlod ongiga ma'naviy-ahloqiy an'analar, insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi. Ozod, har jihatdan barkamol, yuksak mas'uliyat va burch hissiga ega, "o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan" shaxs-fuqarolarni voyaga etkazish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar majmuasini yuzaga keltirish va hayotga joriy etish hozirgi muhim vazifalardandir.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng davlat va jamiyat ta'lim olishga, kasbiy yo'lni tanlashga, kasbga o'qish va

III-BOB. Kasbiy tasavvurlarni shakllanishining mexanizmlari

III.1. Kasbiy tasavvurlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'rganish.....47-55

III.2. Nazorat tajriba natijalari.....55-60

Xulosalar va tavsiyalar.....61-63

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....64-67

Illoalar.....68-76

madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

-O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikamizning jahondagi mavqei va obro'- e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsalaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan etuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, Shuningdek, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tuShunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tuShunchaga tahliliy yondashilsa uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Inson bolasi kamolga etgani sari ilmga ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini uylantirib qo'yayotgani tabiiy. CHunki zamonamiz shiddatkor, jamiyat esa etuk bilimdon mutaxassis-kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi. Bu ham tabiat qonuni. "Eng muhimi Shuni anglab etishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz sa'y-harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz o'zgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor",- deb ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Haqiqatan ham bu cheksiz, murakkab, orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, unda inson manfaatlari yo'lida unumli foydalanishni tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Aytish mumkinki barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi

kasb egallashga bo'lgan yoshlarning huquqlarini amalga oshirishga kafolat beradi.

“Eng muhimi, - degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, yoshlarga biror-bir mutaxassislikni egallashga imkon beramiz, hayotga ishonchli yo‘llanma bilan ta‘minlaymiz. Agar hayotga ishonch bilan qadam qo‘yayotgan yosh inson hayotda o‘z o‘rnini topa olsa o‘z-o‘zidan ma‘lumki, u o‘z ishidan, taqdiridan qoniqadi”. I.A.Karimov «Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida «Xalq ta‘limini tubdan isloh qilish, mazkur dasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag‘ va imkoniyat talab qilmoqda. Lekin istiqbolimiz, iqbolimiz ko‘zi bilan qaraganda ham iqtisod, ham siyosat, ham ma‘naviyat nuqtai nazaridan bu sarf harajatlarga nazar tashlasak, undan keladigan manfaat har qanday harajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar.

Ishonchim komilki, O‘zbekistonning bugungi salohiyati va iqtisodiy holati, xalqimizning aql zakovati va irodasi bu o‘ta ma‘suliyatli, Shu bilan birga sharaflı, oddiy qilib aytganda el-yurtimizning farovon va baxtli kelajagini hal qiluvchi vazifani muvaffaqiyatli ado etishga zamin va imkon beradi» deb ta‘kidlab o‘tgan edi.

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari «Milliy dasturi»mizda alohida ta‘kidlab o‘tilgan:

-Respublikaning demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

-mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirilishi respublika iqtisodiyoti asosan xom-ashyo yo‘nalishida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;

-davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta‘lim ustuvorligi qaror topganligi;

-milliy o‘zlikni anlashning o‘sib borishi vatanparvarlik, o‘z Vatani uchun iftixor tuyg‘usini shakllanayotganligi, boy milliy

Tadqiqotning ilmiy farazi quyidagi taxminlardan iborat bo'lishi mumkin: kasb-hunar kolleji talabalarida kasbiy tasavvurlarni shakllanishi, kasb tanlashga nisbatan ongli munosabat, kasbiy o'zlikni anglashni tarkib topishi, kasblar olami haqidagi bilimlar zaxirasining mavjudligi, kasbga yo'naltirish ishlarining kollej talabalariga kasb tanlashdagi ta'siri, Shuningdek, shaxs yo'nalganligi va kasbiy ustanovkalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tadqiqot davomida hal qilinadigan asosiy vazifalar:

1. Kasbiy tasavvurlar muammosini psixologik, pedagogik adabiyotlarda o'rganish;
2. Tadqiqot metodikasini tanlash va ekspremental modelini yaratish;
3. Kasbiy tasavvurlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'rganish;
4. Kasbiy tasavvurlar va shaxs yo'nalganligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish;
5. Kasbiy tasavvurlarni shakllanish dinamikasini o'rganish;
6. Psixologik, pedagogik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida biz psixologiya fanidagi ongning faoliyatda rivojlanish tamoyilini, sharq allomalar asarlaridagi kasb tanlash va kasbga yo'naltirish borasidagi fikrlarini, yaqin chetel psixologlaridan E.A.Klimov, V.A.Krutetskiy va boshqalarning kasb tanlash borasidagi fikrlarini, o'zbek psixologlaridan M.G.Davletshin. B.Qodirov, E.G'ozievlarning kasb tanlash borasidagi ilmiy izlanishlari, Shuningdek, Prezident I.A.Karimovning o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi g'oyalarini, davlatimiz va nukumatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" boshqa ta'limga oid hujjatlari asos qilib oldik.

Tadqiqotning ilmiy-tadqiqot metodlari sifatida biz quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlarni tanladik:

qudrat o'z hissasini qo'shib yashashi va Shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi ya'ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, Shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror bir kasb sohasida ta'lim olishi keyinchalik Shu sohaga kirishib moslasha borishi va nihoyat yillar davomida etuk va malakali mutaxassis bo'lib etishishi tuShuniladi.

Hozirgi kunda kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlari respublikamizdagi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ayniqsa, kasb tanlashning muhim komponentlardan biri bu shaxsda kasbiy tasavvurlarni shakllanishi hisoblanadi. Buning uchun albatta shaxs kasblar olami haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, Shuningdek, kelgusida tanlagan kasbini oldindan tasavvur qila olishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonga yoshlarni tayyorlash muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Bu muammo nafaqat nazariy echimni balki amaliy tadqiqotlarni talab qiladi. Shu sababli o'smirlarda kasbiy tasavvurlarning shakllanishini o'rganish uchun biz amaliy tadqiqot dasturini ishlab chiqdiq va bunga ko'ra tadqiqot maqsadi sifatida biz kasb-hunar kolleji talabalarida kasbiy tasavvurlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'rganishni tanladik. Tadqiqot predmeti sifatida esa - kasb-hunar kolleji talabalarida kasbiy tasavvurlarni shakllanishi eksperimental tahlil qilishni vazifa qildik. Tadqiqot bazasi sifatida- Olmaliq va Ohangaron shaharlaridagi kasb-hunar kollejlarining 1-3kurs talabalaridan 100 nafari tanlab olindi. Tadqiqot ob'ekti sifatida esa— kasb-hunar kolleji talabalarida, kasb tanlash, kasbiy tasvurlar shakllanishi, kasbiy ustanovkalarining yuzaga kelishini o'rgandik.

I BOB. KASBIY TASAVVURLARNI SHAKLLANISH MUAMMOSINI PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILGANLIGI

I.1. SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA MUAMMONI ILMIY YORITILGANLIGI

Hozirgi davrda milliy tiklanish mafkurasi shakllanayotgan jamiyatda ma'naviy-ahloqiy muhit sog'lomlashayotgan, milliy qadriyatlar, inson huquqi va erki tiklanayotgan, ijodiy kuch-quvvati namoyon bo'layotgan bir sharoitda barkamol inson deganda, o'zida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ahloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan ma'rifatli, islomiy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan etuk, ahloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin ijodkor shaxs tuShuniladi.

SHarqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish qadimiy an'analardan hisoblanadi. Ayniqsa, hunarmand va kosiblar, me'mor va naqqoshlar, dehqon va chorvadorlar, o'z farzandlari yoki shogirdlarini tarbiyalashga kasb - sirlarini o'rgatishga juda katta ahamiyat berganlar. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga e'tibor berishini ko'rsatuvchi turli-tuman naqlar va rivoyatlar, maqollarning asrlar osha to'planib kelganligini ham alohida qayd etish o'rinlidir. Jumladan, "Ustozdan o'zmagan shogird-shogird emas", "Hunarli kishi xor bo'lmas" yoki "Bir yigitga etmish hunar oz" kabi ko'plab hikmatli so'zlar borki, ular qadim - qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol bo'lish orzusida yaxshi munosib bir kasb-kor egasi bo'lib etishishlariga da'vat etib kelganliklarining yaqqol isbotidir.

SHarq mutafakkirlari ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga o'rgatish g'oyasi ham muhim o'rin egallaydi. Bundan ko'rinadiki, kasb tanlash,

1. SHaxs yo'nalganligi metodikasi (Smekal va Kucheralar tomonidan ishlab chiqilgan);

2. Kasbiy tasavvurlarni shakllanganligini aniqlash metodikasi (B.R.Qodirov tomonidan ishlab chiqilgan);

3. Kasbiy ustanovkalarni aniqlash metodikasi (M.Kondakov tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekistonlik psixolog B.R.Qodirov tomonidan moslashtirilgan);

4. Matematik statistik metod;

5. SHakllantiruvchi eksperiment metodi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati Shundan iboratki, o'rganilgan adabiyotlar va tadqiqot natijalari asosida to'plangan ilmiy manbalar, yosh va pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, o'smirlik davri psixologiyasi, o'spirinlik psixologiyasi va boshqa fanlarini yangi ma'lumotlar bilan boyishga xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlarni ta'lim muassasalarida amaliyotga tadbiiq qilish kelgusida yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga va unga ongli munosabatni tarkib topishiga xizmat qiladi. Shuningdek, olingan ilmiy xulosalardan kasb tanlash va kasbga yo'naltirish jarayonida keng doirada qo'llanilishiga imkoniyat yaratiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida biz quyidagilarni aniqlashga harakat qilamiz:

1. Kasbiy tasavvurlarni shakllanishining psixologik mexanizmlari o'rganildi;

2. Kasbiy tasavvurlar va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi munosabat aniqlandi.

bildirgan. Muallim talabalarning qobiliyatini qaysi kasb bilan qiziqishini juda yaxshi bilishi lozim. Agar bola ma'lum bir kasb-hunar yoki ilm bilan Shug'ullansa, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va bu ilm yoki kasbni egallash uchun kerakli shart-sharoitni yaratib berish lozim. Har bir kishining deb yozadi Davoniy: hamma kasbni egallashga qobiliyati bo'lmaydi, balki muayyan odamning kasbga qobiliyati bo'ladi.

Bir kasb-hunarni o'rganishga intiluvchilar butun ist'edodlarini ana Shu kasbni egallashga qaratadilar, natijada o'z sevgan kasb-hunarlarini tezda va puxta o'zlashtirib oladilar. Davoniyning bu fikrlari Forobiyning quyidagi fikrlariga juda o'xshab ketadi: «Kasb-hunarni egallash va kamolotga erishishga o'z ixtiyoricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san'at ahllaridir».

Agar kishining muayyan bir kasbga ishtiyoqi bo'lmasa uni hech vaqt Shu kasbni egallash uchun majbur qilmaslik kerak, aks holda u faqat o'zini qiynashi mumkin.

Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi ya'ni ular kishining ruhiy (ma'naviy) quvvatiga bog'liq bo'lib, birinchisi inson aqliga tegishlidir bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladi. Bunga astronomiya, matematika, tibbiyot va geometriya fanlari bilan Shug'ullanish kiradi. Uchinchisi kishining shijoati va jasurligi namoyon bo'ladigan kasblardir: bular - dushmanga qarshi kurash, chegarani qo'riqlash va boshqalardir.

Ustoz olim biror ish yoki kasb bilan Shug'ullanishni xohlamaydigan kishilarni tanqid qiladi. U yoshlarni mehnat, hunar egallashga chaqiradi, uningcha kishi faqat mehnatda kamolot va baxt-saodatga erishishi mumkin.

Shunday qilib, Davoniy kasb-hunar egallashni kishining eng go'zal fazilatlaridan biri, deb hisoblaydi. Inson kasb-hunarni egallashga uni takomillashtirishga intilish bilan jamiyatga ham foyda keltiradi, demak bunday kishi har qanday tahsinga sazovordir.

kasbga yo'naltirish masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo'lmay, balki azaliy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Davoniy, Jomiy, Ahmad Donish va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni berganlar, chunonchi, ta'lim-so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan u bilan qiziqqan kishilar Shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.

Abu Ali ibn Sinoning kasbiy tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat ahloqiy hislar, balki harakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o'spirinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kilashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlargagina egadir, unga o'xshash insonlar kamdan-kam bo'ladi.

Jomiy ham xuddi Forobiy singari biror kasb-hunarni egallashni yoshlarning asosiy burchi deb hisoblaydi. U bir odam ikki ishni eplay olmasligini ta'kidlaydi, faqat muayyan bir hunar bilan Shug'ullanish, uni puxta o'zlashtirish lozimligi haqida gapiradi.

Jomiy hunar egallashni, u bilan Shug'ullanishni har qanday boylikdan afzal ko'radi, yoshlarni hunar egallashga chaqiradi.

SHarqning komusiy olimlaridan Davoniy bolalarning kasb-hunar egallashi to'g'risida ham e'tiborga sazovor fikrlar

yosh avlod o'rtasida tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o'qituvchining ahloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U o'qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchi va talabalarga ko'p bilim berish, o'z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustilarida ko'p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan ko'rinadiki, Ahmad Donish o'qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo'yadi. U go'zal ahloqlilik va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining go'zal sifati deb biladi.

Xulosa o'rnida Shuni ta'kidlash lozimki, sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasidagi fikrlarni o'rganish, ularni amaliy hayotga tadbqiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Shuningdek, ularda kasbga xos tusuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

I.2. YAQIN CHET EL PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA KASBIY TASAVVURLARNI SHAKLLANISH MUAMMOSI

Kasbiy o'z-o'zini anglashdagi qiyinchiliklar kasbiy yaroqlilik nima ekani, uning qanday shakllanishini bilmaslik bilan ham bog'liq. Istalgan mehnatga ma'lum mo'ljallanganlikni borligi haqidagi noto'g'ri fikr keng tarqalgan.

O'zini, o'z imkoniyatlarini bilib olmaslik kasbiy o'z-o'zini belgilashda asosiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayrim o'quvchilarda ifodalangan qiziqish, qobiliyat va moyillikka ega emasligiga ishonsa, boshqalari naqadar ko'p qiziqish va qobiliyatga egaki tanlaydigan kasblar doirasini cheklashga qiynaladi. Uchinchilari ma'lum kasbiy maqsadlarga ega biroq zarur kasbiy ifodalangan sifatlarga ega emas. O'quvchilarning aksariyat ko'pchiligi hatto, ota-onalar ham ko'pincha kasb tanlashda mehnat faoliyatga asosiy e'tibor bermasdan, balki ta'lim muassasasini yoki o'quv faoliyatini hisobga olib tanlashni

U kishilarni eng avvalo kasb-hunariga qarab toifalarga bo'ladi. Birinchi toifaga qalam ahillarini-olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar, muxandislar, musulmon qonunshunoslarini; ikkinchi toifaga harbiylarni; uchinchi toifaga esa savdogarlar, hunarmandlar va boshqalarni kiritadi. To'rtinchi toifaga esa dehqonlar, qishloq xo'jaligi bilan Shug'ullanuvchilardan iboratligini ko'rsatib o'tadi.

Davoniy, ayniqsa, dehqonchilik kasbini ulug'laydi. Xuddi Alisher Navoiy singari Davoniy ham dehqonlar mehnatiga yuqori baho beradi. Chunki dehqonlar hamma toifadagi kishilarni oziq-ovqat, moddiy boylik bilan ta'minlovchi kishilar hisoblanadi. Ularning g'ayratisiz inson zoti xuddi mayda savdogarlar singari yo'q bo'lib ketadi, chunki boshqa toifadagi kishilar hayot kechirish uchun ularchalik narsa yarata olmaydilar, balki bunyod qilingan narsalarni boshqa kishiga beradilar, bir joydan ikkinchi joyga olib boradilar, yoki shaklini o'zgartiradilar.

Davoniyning kasb-hunar egallash to'g'risida ijobiy qarashlaridan biri Shuki, u birinchi navbatda oddiy xalq mehnatini, xususan, dehqon mehnatini kuylaydi, inson faqat o'z halol mehnati tufayli baxt-saodatga eriShuvi barkamol shaxs bo'lib etishishi mumkinligini isbotladi. Shuning uchun u kasb-hunar egalarini doimo hurmatlash, mehnatini qadrlashga chaqiradi.

O'zining ta'lim-tarbiya, ahloq nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda Shuhrat qozongan Ahmad Donish o'qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildiradi.

Ahmad Donish kasb tanlash haqidagi fikrlaridagi kasb tanlashda uning odamlarga foyda keltirishga asosiy e'tibor berish kerakligi haqida qarashlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning o'qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida ahloq masalasiga katta e'tibor berganligini ko'ramiz. U o'qituvchini talabalarga kuchli ta'sir etuvchi deb biladi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo'lishi g'oyatda zararlidir, chunki ular o'zlaridagi ahloqiy buzuqlikni

Psixologik adabiyotlarda kasbiy konsultatsiya dasturida uchta jihatni farqlash umum tomondan e'tirof qilingan. Bular axborot tashxis, asl konsultatsiya yoki korreksiya va boshqalar.

Axborot qismi kasb tanlash qoidalari haqida suhbat, kasb tanlashda yo'l qo'yiladigan tipik xatolar tahlili kasblar tasnifi, jumladan, E.A.Klimov kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqqan tasnifi bilan tanishishni o'z ichiga oladi. Diagnostik jihat o'quvchining kasbiy yo'nalganligi uning bilishga qiziqishlari xususiyatlari kasbiy rejasi mavjudligi va shakllanganlik darajasi, kasbiy motivatsiya xususiyatlarini aniqlash, o'rganish, Shuningdek, ayrim individual-psixologik xususiyatlar tahlilini o'z ichiga oladi.

Agar konsultativ jihat birlamchi kasbiy konsultatsiyaning yakunlovchi qismi bo'lsa, u suhbat shaklida bo'ladi. Suhbat spetsifikasi va vazifalari individual psixologik xususiyatlar, kasb tanlash vaziyati kasbiy rejani shakllanganligi psixiagnostika natijasida olingan ma'lumotlar bilan belgilanadi.

Kasbga yo'naltirish ishining markaziy bo'g'ini o'quvchining mehnat faoliyati turlariga qiziqish va moyillikni aniqlash sanaladi. Ifodalangan qiziqish va moyilligi bo'lgan o'quvchilar bo'lg'usi kasbini tanlashda deyarli qiynalmaydi. Ular uchun o'z tanlovi to'g'riligi psixologlar tomonidan tasdiqlanishi dolzarb, xolos. Biroq ko'plab o'quvchilar aniq qiziqish va moyilliklarga ega emas yoki ularni bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan bog'lamaydi. Moyilliklarning asosiy ko'rsatkichi o'quvchilar tomonidan faoliyatning ma'lum turi va maktab fanlaridan tashqari majburlashsiz, balki ichki undov va ehtiyojiga ko'ra shug'ullanishga intilishdir.

Kasbiy faoliyatning samaradorligi shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda, uning ruhiyati, jismoniy sog'lig'i va holati, undagi sifatlarining bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi.

mo'ljallaydilar. Bu tanlov u yoki bu fanga qiziqishga asoslanadi. Aslida esa o'quv va mehnat faoliyati orasida tegishli fan doirasida katta tafovut mavjud.

Kasbiy o'z-o'zini anglash jarayonidan oldin, katta o'smir va o'spirinlik davri kasbni birlamchi tanlash kichik maktab yoshida amalga oshadi, uning uchun kasblar haqida kam differensiallashgan tasavvurlar xos. Bu bosqichda kamdan-kam o'quvchi u yoki bu kasbni egallay olish imkoniyatlari haqida o'ylaydi. Kasblar haqida esa tashqi atributlar kiyim-bosh, o'zini tutish va Shu kabilarga qarab fikr yuritadi. Bu yoshdagi bolalar shaxsi psixik xossalari rivojlanishida ekani sababli ularda ko'pincha barqaror qiziqish va moyilliklar bo'lmaydi. Aynan Shu davrda (6-7 sinf) o'quvchilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish turli faoliyat turlarida o'zini sinashga imkoniyat berish lozim, ko'pincha Shu yosh davrida yuzaga kelgan qiziqishlar kelgusi kasbiy tanlov uchun asos bo'ladi.

7-8 sinfdan boshlab kasb tanlash va unga tayyorgarlik dolzarb bo'lgach o'quvchilar bo'lajak kasbi haqida jiddiy o'ylay boshlaydi, o'zining psixologik va psixofiziologik "zaxiralarini" baholashga urinadi. Maktab o'quv fanlarini yangidan avvalo, bo'lajak kasbi uchun zarurligi nuqtai nazardan baholashni boshlaydi. Bu holda kattalarning asosiy vazifasi o'quvchiga o'zini bilishda o'z imkoniyatlari, xulq motivlarini, individual psixofiziologik imkoniyatlarini ta'Shunishda yordamlashishi va bu bilimlardan kasbiy o'z-o'zini anglash jarayonida faol foydalanishdan iborat.

Bu ishning pirovard maqsadi-o'quvchini mustaqil o'ylab ongli ravishda kasb tanlashga etaklash va maktab sharoitida imkoni boricha kasbga dastlabki psixologik tayyorgarlikni ta'minlashdir. O'quvchilar bilan bunday ish olib borishda guruh va individual kasbiy konsultatsiyalar shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq.

uchun mutaxassisni oliy o'quv yurtida tayyorlash, unda kasbiy faoliyat uchun etarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim. Ba'zi vaqtlarda hatto kasbiy masalalarni hal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis ham zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin, ya'ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy boshqarish etarli darajada bo'lmaydi. Bunday holatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish qiyin yoki samarasiz bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini, kasbiy mahoratini hamda o'zini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirishga, o'zining kasbiy (ma'naviy, shaxsiy va jismoniy) imkoniyatlarini hal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga, o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalganligi darajasidir.

Mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- yo'naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qism mutaxassis shaxsining bilish sohasini o'z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va bular birgalikda mutaxassis shaxsining kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi.

- motivatsion tayyorligi. Mutaxassisning motivatsion tayyorligining asoslari, o'z kasbiy mutaxassisligini ta'minlash olishi, o'zida pozitiv munosabati tarkib toptira olishi, o'zini baholay bilish faoliyatiga nisbatan qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o'quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga va ta'lim olish jarayonida o'zini rivojlantirishga

Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir – deb hisoblagan.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligi: murakkab ko'p darajali va ko'rinishli, tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. CHunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan tomonlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bu o'zaro bog'liq tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

1. SHaxsning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi mutaxassisning bu tayyorligi quyidagilardan iborat bo'ladi, ya'ni statik komponentlar kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko'nikma, malakalar kasb uchun muhim hisoblangan shaxsning sifatlari: uning munosabati mazmun va qadriyatlari, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo'lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. SHaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining ushbu tomoni, tezkorligi, o'zgaruvchanligi, har qanday holat va sharoitda aniq masalalarni echishi, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy psixologik muhitga bog'liqligi bilan ifodalanadi.

Mutaxassisning bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi, bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning

hisoblanadi. Bu yo'nalishda uning faollik darajasi ishtirok etadi. Kasbiy masalalarni hal etishda ham, xodim kasbdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda ham, o'zini to'la va har tomonlama ko'rsatishga intilishdan iborat bo'ladi.

Mutaxassisning bunday o'zini tashkil etishi ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatga erishish istagiga va intilishiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy psixologiyada muvaffaqiyat muammosiga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud bo'lib ularda mazkur muammo amaliy va nazariy jihatdan o'rganilgan.

Muvaffaqiyat – deganda shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish tushuniladi. Odamning bajarayotgan ishini muvaffaqiyatlilikini his etishi ikkita hal etuvchi vaziyatlarga bog'liq bo'ladi: haqiqiy natija va ushbu vaziyatlarda uning qiziqishlari darajasiga. Ular odam o'z faoliyatida qo'ygan maqsadlarini ifoda etish shakli sifatida ishtirok etadi.

Shunga muvofiq muvaffaqiyatga erishishning vositlari, shart-sharoitlari ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagi formula asosida beriladi.

$$\text{Muvaffaqiyat} = \frac{\text{natija}}{\text{qiziqishlar darajasi}}$$

Ko'rinib turibdiki, bir xil natija bo'lganda ham muvaffaqiyat turlicha bo'lishi mumkin (masalan yuqori, o'rta, past) yoki u umuman bo'lmasligi ham mumkin. Bu odam o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Va aksincha shaxsning qiziqishlar darajasi bir xil bo'lganda, muvaffaqiyat faoliyat natijasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Kasbiy faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga erishishda mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari muhim rol o'ynadi. Hayotiy muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'plab shaxsiy sifatlar haqida V.Kroford o'zining "Suhbat va munozara" kitobida Konfutsiyning g'oyasiga tayanib, do'stonalikni, donolikni va botirlikni ko'rsatadi. Muallif odamga ishida

mavjud motivatsion doiraning yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi.

- Ijrochilik – bu tarkibiy qismi kasbiy mahoratni (bilim, malaka, ko'nikmalar), kasbiy xulq odatlari kabi muhim kasbiy sifatlarning to'plami, kasbiy qobiliyatlarni rivojlanganlik darajasi va mutaxassisning irodaviy tayyorligi, uning xulqi va faoliyati davomida o'zini boshqarishga qodirligi, operatsional funksiyali tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi.

Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o'zaro munosabatlarni o'rnatishga va rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi.

Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati etarlicha darajada rivojlanganligida, u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi. Shaxsning nutqiy madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlaganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empativlikni, xushmuomalalik, do'stonalilik, o'rtoqlik hissi, jamoatchilikni rivojlantirish, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalar, munosabatlarga tayyorligi va qodirligini, o'zaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni to'g'ri hal eta bilishni, ishda xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni ko'zda tutadi.

Mutaxassis faoliyati muvaffaqiyatlilikini yana bir muhim sharti, uning kasbiy va shaxsiy jihatdan tayyorligi va qodirligi

- maktablarda, ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi;
- maxsus muassasalar faoliyati;
- kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi;
- ijodkor, nufuzli va mahoratli kishilar bilan uchraShuvlar o'tkazilishi;
- kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniyaning ishtiroki.

Psixolog K.K.Platonov "Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagi" sxemasini ishlab chiqqan bo'lib, u o'zining ixchamligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Xuddi Shu bois kasb tanlashga yo'llashda undan unumli foydalanish mumkin. Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagining muhim tomoni, bu har xil kasb-hunar egasiga nisbatan quyiladigan talablar yuzasidan muayyan bilimning mavjudligidir. Uning ikkinchi bir xususiyatli tomoni Shuki, u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyatning mehnat imkoniyatiga ehtiyoji bo'yicha bilimlar mujassamlashganligidir. Yana bir o'ziga xos tomoni Shundan iboratki, kasbga yo'naltiruvchining qunti, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari bo'yicha bilimlar umumlashtirilgan bo'lib, kasb tanlashga oid barcha jihatlar majmua holiga keltirilgandir.

Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagi shaxsning qiziqishi, mayli, xohishi, o'zini-o'zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o'zida mujassamlashtiradi.

V.A.Krutetskiy o'spirinlarda uchrashi mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

- biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi;
- vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilib ko'rsatishi;
- oilaviy an'analariga rioya qilishi;
- do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi;
- ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi;
- moddiy ta'minlanganlik;

muvaqqafiyat erishish uchun nima etishmasligini aniqlash uchun qiziqarli metodikani ishlab chiqdi. V.Kroford hozirgi zamon mutaxassisi muvaqqafiyatga erishish uchun ko'rsatilgan 3 ta tuShunchadan tashqari kasbiy mahorat ham kerakligini aytib o'tadi.

Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar muvaqqafiyatga erishish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ko'rsatadi:

- mutaxassis o'ziga ishongan bo'lishi kerak;

- maqsadga erishishga kuchli intilish kerak;

- nimaga erishish istagini aniq bilishi kerak;

- ishga pozitiv yo'nalganlik;

- omad, alohida muvaqqafiyatlarni ko'ra bilish va Shu paytda quvonch va baxtni his etishi zarur.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra odamning hayoti va kasbiy faoliyatidagi muvaqqafiyat o'rtasida uzviy bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

Kasbga yo'naltirish deganda, - yoshlarni xohish moyilligi va shakllangan qobiliyatlariga yarasha va xalq xo'jaligini hamda umuman jamiyatning mutaxassislarga ehtiyojlarini hisobga olib ishga joylashtirish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan psixologik pedagogik va tibbiy tadbirlar kompleksi tuShuniladi.

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- ta'lim-tarbiya tizimida kasbga yo'llash faoliyatining mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi;

- o'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi;

- sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi;

- kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki;

- sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratib ko'rsatilishi;

kasbning haqiqiy amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ko'plari mazkur oliy o'quv yurtiga tasodifan kirgan bo'ladilar, otam ham vrach bo'lgani sababli kirdim, o'rtog'im kirayotgani sababli kirdim chunki bu erga kirish osonroq bo'ldi va hokazo.

Kasbiy o'z-o'zini aniqlash ko'p bosqichi jarayon bo'lib, unda turli xil nuqtai nazardan yondashish mumkin. Birinchidan bu jarayonni jamiyatda shakllanib borayotgan shaxs oldiga quyuvchi vazifalar sifatida qarash mumkin. Bunda shaxs ushbu vazifalarni muayyan vaqt davomida va muayyan ketma-ketliklarda bajarish zarur. Ikkinchidan kasbiy o'z-o'zini aniqlash, qaror qabul qilish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Bunda shaxs o'z moyilliklari va xohishlarini mavjud ijtimoiy tuzum ehtiyojlari asosida shakllantiradi hamda optimallashtiradi. Uchinchidan u individual hayot uslubining tarkib topish jarayoni sifatida ifodalanishi mumkinki, uning tarkibiy qismi kasbiy faoliyatdir. Bu uch yo'nalish muammoning turli tomonlarini harakterlaydi: birinchi qarash sotsiologik, ikkinchisi ijtimoiy-psixologik va uchinchisi differensial psixologik qarash bo'lib, ular o'zaro birlarini to'ldiradilar.

Yosh davrlari psixologiyasida kasbiy o'z-o'zini aniqlash odatda bir qancha bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqich - bolalar o'yini. O'yin davomida bola o'ziga turli kasb rollarini oladi va bu kasbga tegishli xatti-harakatning alohida elementlarini amalga oshiradi.

Ikkinchi bosqich - o'smirlik davridagi fantaziya. O'smir o'zini unga yoqadigan orzusida qanday kasb namoyondasi sifatida ko'radi.

Uchinchisi bosqich o'smirlik davrini hamda ilk o'spirinlik davrini qamrab oladi. Faoliyatning har xil turlari, avvalo o'smir qiziqishlari, so'ngra uning qobiliyatlari va nihoyat uning qadriyatlari tizimi nuqtai nazaridan baholanadi.

Ammo Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqish qobiliyat va qadriyatlar kasb tanlashning barcha bosqichlarida namoyon

- o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir.

Psixolog E.A.Klimov tomonidan o'spirinlarda kasb tanlash jarayonida uchraydigan xatoliklarni quyidagilar deb ajratib ko'rsatadilar:

- biror bir kasbning nufuzli ekanligiga bahs borishdagi dogmalarga asoslanish;

- kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish;

- biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish;

- kasbning oddiy kundalik tomonini nazar pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga - sirtiga mahliyo bo'lish;

- o'rtoqlarining ta'siri ostida kompaniya uchun kasb tanlash va boshqalar.

Psixolog V.Shubkin quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tadi, ma'lum bo'lishicha maktabni bitirib chiqayotgan yoshlar fizik, radiomutaxassis, matematik, uchuvchi, geolog, vrach, adabiyot va san'at xodimi kasblarini juda yuqori baholar ekanlar. Xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasblarning sotuvchilar, umumiy ovqatlanish, kommunal korxonalar xodimlari, tikuvchilar, Shuningdek, hisobchilik, ish yurituvchilik, buxgalterlik kasblarining mavqei juda past ekan. G.Kulagin ham maktabni bitirib chiqayotganlar orasida turli kasblarning qanday mavqeiga ega ekanligi haqida yorqin ma'lumotlar keltiradi. Ana Shu yoshlar 80 ta kasbni muhimligiga qarab qaysi o'ringa joyldashtirib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin, unga ko'ra tokar va usta kasblarini 39-40- o'ringa quygan bo'lsalar, ayrimlari 75-76 o'ringa quyishgan.

Kasbiy niyatlarning barqarorligini o'rganish maqsadida N.I.Krilov o'tkazgan tekshirish Shuni ko'rsatadiki hatto o'z niyatlarini amalga oshirib oliy o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko'plari o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab maktabni bitirgan yoshlarini mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu

3. Ayrim qobiliyatlar ifodalanishining sustligini yo'qotish imkoniyatlari mavjud. Bu esa mashq qilish natijasida yoki ishning uslublarni hamda qobiliyatlarini boshqalari hisobiga to'ldirish asosida amalga oshiriladi.

4. Qobiliyatlarni shaxsning individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda shakllantirish ya'ni taraqqiyotning ichki va tashqi sharoitlarini hisobga olgan holda tarkib toptirish.

O'smirlar psixologiyasida baholash va o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini anglash muammolari bilan bevosita Shug'ullanadigan psixologlar ishlariga murojaat etish muhimdir. O'z-o'zini anglashning roli-katta, o'quvchi shaxsining harakterli xususiyati o'smirlikning o'spirinlikdan o'z "Meni"ga qiziqishning ortishi hisobiga farqlaydi. Bu sharoitni hisobga olish o'quvchilar kasbiy tiklanishini tashkil etishda nihoyatda muhim, zero kasbni ongli va ishonch bilan tanlay olish bu yoshda nisbatan barqaror "Men" kabi psixologik sifatining, ya'ni o'zi haqida yaxlit tasavvurning shakllanishi bilan uzviy bog'liq. "Men" obrazi (ba'zan "Men" tuShunchasi "Men" konsepsiyasi deb ham yuritiladi) – murakkab psixologik hodisa. U Shunchaki o'z sifatlarini anglash yoki o'z-o'zini baholash yig'indisi emas. "Men kimman?" degan savol o'zini tavsiflash emas, u ko'proq o'z-o'zini belgilashni ko'zda tutadi: "Men kim bo'lishim mumkin?" va "Kim bo'lishim kerak?". Imkoniyatlarim, istiqbollarim qanday. Men hayotda nimalar qila oldim va yana qila olaman?".

"Men" obrazi – shaxsning o'zi haqida faoliyat sub'ekti sifatida tasavvurlar tizimi bo'lib, uch asosiy tarkibiy qismga ega:

- kognitiv o'z individual psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlar yig'indisi;

- emotsional o'ziga nisbatan ma'lum baholovchi munosabatning mavjudligi;

- boshqaruv o'z xulqini boshqarish imkoniyati.

bo'ladi. Qariyatlar tomoni qiziqish va qobiliyatlarga nisbatan ancha keyinroq shakllanadi.

To'rtinchi bosqich – amaliy qaror qabul qilish, kasb tanlash bosqichi bo'lib, u o'z ichiga ikkita muhim tarkibiy qismni oladi.

A) bo'lajak mehnat malakasi darajasini unga ko'riladigan tayyorgarlikning hajmi va davomiyligini aniqlash;

B) aniq mutaxassislikni tanlash.

Qaror qabul qilishda qiziqish qobiliyat va qadriyatlardan tashqari o'z ob'ektiv imkoniyatlarini oilaning moddiy sharoitlari, o'quv tayyorgarlik darajasi, sog'lig'ining ahvolini baholash ham muhimdir.

Kasb tanlash o'quvchida ikki turdagi axborotning mavjud bo'lishini talab qiladi. Bular:

1. Umuman kasb dunyosi haqida va ulardan har birining talab imkoniyatlari to'g'risida;

2. O'zi haqida, o'zining qobiliyatlari va qiziqishlari haqida.

O'spirinlarda har ikkala turdagi axborot ham etishmaydi. Sotsiolog V.N.Shubkin o'tkazgan tadqiqotlarining ko'rsatishicha 17 yoshdagi o'spirinlarning kasblar dunyosiga bo'lgan munosabatlari ota-onalari, tanish bilishlari, do'stlari, tengdoshlari, kitob, kinofilm, teleko'rsatuvlardan olingan tajribalari hamda ma'lumotlari asosida shakllanadi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyilidan kelib chiquvchi yana bir qarash mavjud. Bunda asosiy e'tibor faoliyatning individual uslubini shakllantirishga qaratiladi. Bu nazariya E.A.Klimov tomonidan ilgari surilgan quyidagi manbalarga asoslanadi:

1. Faoliyat muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan barqaror amaliy jihatdan qayta tarbiyalash mumkin bo'lmagan barqaror shaxsning psixologik xususiyatlari mavjud.

2. Kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashishning turli variantlari mavjud bo'lib, ular usuliga ko'ra turlicha, biroq mehnat mahsuldorligi bo'yicha bir xildir.

tanlash vazifalarini hal etish uchun tashxislash metodlari R.Z.Gaynutdinov rahbarligida yaratilgan turli kasblar uchun asosli professiogrammalardir.

O'zbekistonda kasbiy orientatsiya ishi tajribasi bir necha marta umumlashtirilgan «Yoshlarni kasbga yo'naltirishni takomillashtirish muammolari» Respublika konferensiyasida, mehnat ta'lim-tarbiyasi va kasbga yo'naltirishni takomillashtirish masalalari bo'yicha konferensiyalarda, «Yoshlar o'rtasida kasbiy ishlarining psixologik jihatlarini» simpoziumida, qishloq yoshlari orasida ommaviy kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishga bag'ishlangan sohaviy va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida kop marotaba muhokama qilingan.

«Inson-kasb-ishlab chiqarish muhiti» tizimi o'z-o'zicha ko'p bosqichli va ko'p qirrali juda murakkab bo'lib, respublikamizda ushbu tizimda davlat miqyosida inson omiliga g'amxo'rlik qilinadi. Kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosati har tomonlama rivojlangan shaxs fuqaroni uzluksiz ta'lim tizimi orqali tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Shunday qilib insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental hamda amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. R.Z.Gaynutdinov rahbarligida kasbiy tiklanishning turli muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

D.N.Arziqulovning dissertatsion tadqiqotida Agrar universitet talabalarining kasbiy shakllanish bosqichlari, psixologik xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. Boshqa kasblarga ham taalluqli bo'lgan muhim xulosalar, kasbiy tiklanishning har bir bosqichida ajratilgan shaxsiy xususiyatlar bilan kasbiy sifatlar o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik borligi haqidagi fikrlardir. Rivojlanishning turli bosqichlarida shaxsning alohida xususiyatlar ustuvorligi, ularning shaxsiy-kasbiy adaptatsiyasi ifodalab, o'zini kasb bilan identifikatsiyalash ko'rsatkichi sanaladi.

“Men” obrazi shakllanganligining mezonlari:

- kognitiv rejada o‘z psixofiziologik va psixologik zaxiralari haqidagi bilimlar to‘liqligi, sistemaliligi farqlanganligi;

- emotsional rejada o‘z-o‘zini baholash va o‘zini qabul qilish adekvatligi;

- boshqaruv rejasida o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini qabul qilish adekvatligi;

- boshqaruv rejasida o‘z xulqi va psixologik faolligini o‘zi nazorat qila olishi sanaladi.

Shunday qilib “Men” obrazi shaxsning etakchi motivlari, jumladan kasb tanlash motivlari shaklanadigan yadro bo‘lib xizmat qiladi. “Men” obrazi shakllanganligi turli kasb talablari bilan nisbatlash shartlaridan biri sifatida ko‘riladi va o‘zining psixologik va aqliy potensialini bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatda o‘zaro ayrboshlashda samaradorligiga ko‘maklashadi.

O‘quvchilar kasbiy tiklashishi xususiyatlarini baholashda “Men” obrazining har bir komponenti holati uch yo‘nalishda o‘z-o‘zini tahlil qilish, kasbiy faoliyat, tahlili kasbiy sinovlarda baholanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, kasb tanlashda gender farqlarni yuzaga kelishi, shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, shaxs xususiyatlari, kasbiy tuShuncha va tasavvurlarni shakllanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

I.3. KASB TANLASH, KASBGA YO‘NALTIRISH MUAMMOLARI O‘ZBEKISTONLIK PSIXOLOGLAR TADQIQOTLARIDA

Kasbiy konsultatsiyalar shaxs xossalari, xususiyatlari, sifatleri tashxis metodlarini ishlab chiqish psixologiya fanining markaziy vazifalaridan biridir. Respublikamizda tashxisning bunday metodikalarini yaratishda ma‘lum tajriba to‘plangan. Masalan o‘quvchilarni psixologik o‘rganish metodikasi (Tokareva V.A, Aytmetova S.SH), shaxsni o‘rganish metodlari (M.G.Davletshin tahriri ostida B.Qodirov va K.Qodirovlar), o‘quvchilarni kasb

ustasining kasbiy tiklanishning psixologik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotining maqsadi, shaxsiy kasbiy o'sishni aniqlash va uning kasbiy tiklanishning turli bosqichlarida namoyon bo'lishi xususiyatlarini ochib berish, Shu asosida ishlab chiqarish ta'limi ustasining professiogramma va psixogrammasini ishlab chiqishdan iborat. B.N.Sirliiev fikricha ustalarning kasbiy tiklanish ko'rsatkichlari, qo'yidagi individual psixologik xususiyatlar: muloqotga kirishuvchanlik, emotsional barqarorlik, dominantlik, ijtimoiy etuklik, ijtimoiy jasurlik, ishonuvchanlik, ishonch, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, pedagogik bilim va malakalar, ishlab chiqarish ta'limining tashkil etish bilan bog'liq bilim va malakalar, o'quv hujjatlari bilan ishlash va boshqalar, shakllanganlik rivojlanishining namoyon bo'lish darajalari bo'lishi mumkin.

R.Z.Gaynutdinovning ishlarida o'qituvchi pedagogik faoliyati komponentlari realizatsiyasi darajasi, shaxsiy xossalari omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi mezonarini ajratish mumkin. Bular:

- shaxsiy-professional komponentlikning o'z-o'ziga nisbati;
- o'z-o'zini dolzarblashga intilish;
- emotsional barqarorlik va kasbiy identiklik;
- o'z-o'ziga hurmat va «Men» ning ichki muvofiqligi;
- dinamizm, yutuqlarga ehtiyoj, ektrovertlanganlik, atrofda gilarining o'ziga nisbatan pozitiv munosabatini kutish;
- internallik (ichki nazorat darajasi ekani).

Shaxsiy xossalarning namoyon bo'lishining yuqori darajalari, pedagogik faoliyat komponentlarini ijodiy realizatsiyalaydigan progressiv o'qituvchi tipining tiklanishiga ko'maklashadi. Ular tadqiqotda ishtirok etganlarning 33,1% ini tashkil etgan.

Keyingi ilmiy tadqiqotlarda ham, amaliy vazifalarni hal etish uchun muallifning talabalarining o'qish yillarida o'zi haqidagi tasavvurlarning bog'liqligi keyin o'z tajribasini amaliy faoliyatda interpretatsiyalash, ularning integral «Men» ning kasbiy tiklanishidagi ahamiyatini aniqlash imkonini berish haqidagi xulosasi ahamiyat kasb etadi. Kasbiy tiklanishda muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'ziga pozitiv munosabat omillari bilan belgilanadi.

SH.G'.Saparovning o'qituvchilarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlanadiki ularning shaklanishi va rivojlanishi, ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi, ya'ni namoyon bo'lish darajasi va sifati o'qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog'liqdir. Shuningdek, muallif jins va kasbiy faoliyatning motivatsion asosi kabi omillarni ko'rsatadi. «Erishishga ehtiyojning yuqori darajasi tendensiyasi asosan 10 yilgacha staji bo'lgan 30-35 yoshgacha o'qituvchilarda namoyon bo'ladi. Keyin faoliyatda erishish ehtiyoji barqarorlashib, o'rtacha qiymatlar darajasida boradi».

Yu.M.Asadovanning dissertatsiyasida umumta'lim maktabi o'qituvchisining malaka oshirish tizimidan kasbiy-shaxsiy o'sish yo'nalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu bosqichda obro'ni qo'llab quvvatlashda kasbiy tiklanish samaradorligi ko'p jihatdan psixologik xususiyatlarga bog'liq.

Muallifning psixologiyada umum e'tirof etilgan asosiy xulosalaridan biri «shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, insonning aniq faoliyatida namoyon bo'lib Shu faoliyatning omili bo'la oladi. Unda takomillashib maqsadga erishish vositasi sifatida faoliyatning qayta ishlashda psixofiziologik asosi ham shaxsning ular bilan hisoblashib, o'z imkoniyatlarini baholaydigan vosita sifatida ham xizmat qilishidir», bunday shaxs xususiyatlari ekstrovert, interovertlik, neyrotizm, o'z-o'zini baholash, xavotirlik, emotsional potentsial (barqarorlik), emotsional jalb qilinganlik sanaladi.

B.Sirlievning o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasasi

Vatanimiz psixologiyasida yuridik psixologiya doirasida bajarilgan tadqiqotlar alohida o'rin tutadi. E.Yu.Agzamova (2001) tadqiqoti ichki ishlar xodimlarining shaxsiy-psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishini belgilovchi omillarni o'rganishga bag'ishlangan. IIV xodimlari kasbiy tiklanishda o'ziga xoslik mavjud bo'lsada umumpsixologik qonuniyatlar ham mavjudligi isbotlangan. Ular shaxsiy tavsifnomalar ahamiyatligidan iborat.

IIB xodimlari shaxsning individual psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar:

- psixologik ishonchlilik va barqarorlik;
- kasbiy sezgirlik va idroklilik;
- sub'ektiv nazorat.

I.R.Ergashevning tergovchining dastlabki tergov qatnashchilari bilan muloqot psixologiyasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida bizning ilmiy qiziqishlarimiz nuqtai nazaridan muhim xulosa Shuki, tergovchilarning dastlabki tergov qatnashchilari bilan psixologik aloqa o'rnatishda samaradorlik hal qiluvchi darajada ularning kasbiy muloqotga kasbiy-psixologik tayyorlanganligi darajasiga bog'liq.

Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga K.B.Qodirov tadqiqoti bag'ishlangan. Asosiy qoida kasbiy yo'nalganlik umuman moyilliklarda qiziqish va qadriyatlarda ifodalanib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog'ida psixologik tayyorgarlik yoki etuklik kasbiy o'z-o'zini anglashning muhim omili bo'lib kasbni to'g'ri tanlashda yordamlashadi va kuch barqarorlik keskinlikda namoyon bo'ladi bu ongillik mustaqillik bilan ta'minlanadi va kasbiy tanlovning

SHaxsiy-kasbiy xossalar namoyon bo'lishi o'rtacha ko'rsatkichlari, pedagogik faoliyat komponentlari realizatsiyasi o'rtacha darajasiga ongli, mohirona biroq ijodkorliksiz to'g'ri keladi. Bunday standart tipdagi o'qituvchilar 48,1 % ni tashkil qilgan.

O'z «Meni» uchun past ko'rsatkichga ega o'qituvchilar, o'z kasbiy faoliyatida etarlicha komponentga ega emas va ular 18,8% ni tashkil etgan.

Shu tariqa faoliyat sub'ektining shaxsiy sifatlari bilan kasbiy muvaffaqiyatlilikning to'liqligi o'z isbotini topgan.

F.S.Ismagilovanning mutaxassislarning kasbiy tajribasi va uni bozor iqtisodiyoti shakllanish davrida boshqarishga bag'ishlangan tadqiqotida, ko'rsatiladiki kasbiy tajriba samaradorligi mezonini mutaxassisining raqobatbardoshligi sanaladi. Raqobatbardoshliklik mutaxassisining professional sifatida mehnat bozorida va tashkilotda uning ustunligi bosh talab qilinish darajasidir.

Psixologik rejada buni ish beruvchining mazmuniiy maydoniga orientatsiyasi, o'z professional xarakterlari va imkoniyatlarini qadriyatlarining ish beruvchi uchun dolzarb reytingiga mos ravishda qayta baholashga tayyorgarlik sifatida talqin qilish mumkin. Sub'ektning o'z kasbiy tajribasiga munosabati tajribaning sub'ektning o'zi uchun shaxsiy ma'nosi va bu tajribaning mehnat bozorida real ahamiyatini farqlay olishga asoslanmog'i kerak deb yozadi muallif. Shunday qilib F.Z.Ismagilova o'z-o'zini anglash mutaxassisining o'z-o'ziga munosabatining kasbiy tiklanishni belgilovchi asosiy omillardan biri ekani isbotlangan.

II BOB. KASBIY TASAVVURLARNI SHAKLLANISHINI AMALIY JIHATDAN O'RGANISH

II.1. KASBIY TASAVVURLAR VA SHAXS YO'NALGANLIGI O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Ma'lumki odamning biron bir faoliyat turiga bo'lgan layoqati, yoqtirgan kasb-kori ko'p jihatdan uning harakter xususiyatlari, ustuvor qadriyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'ladi. Chunki kasbiy faoliyat turlari xilma-xil bo'lib ularning ba'zi birlari kishidan atrofdegilar bilan uzluksiz muomalada bo'lib turishini talab qilsa, boshqalari jiddiy javobgarlikni kuchli tahliliy qobiliyatlarni yoki uzoq vaqt diqqat bilan ishlashni va hokazolarni talab qilishi mumkin. Shaxsning kasbiy shakllanish jarayonida muhim muammolardan yana biri umuman kasbiy hayotga bo'lgan munosabat masalasi. Ya'ni kasbga yo'naltirishga doir to'plangan tajribalar Shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyat har doim ham kishilar hayotining asosiy mazmunini tashkil etavermaydi, xususan, ba'zi odamlar uchun hayotning boshqa sohalari kasb-korga nisbatan ancha muhimroq o'rinni egallashi mumkin. Bundan kelib chiqqan holda aytish kerakki, har bir inson hayotida nafaqat kasbiy faoliyat balki Shu bilan birga oilaviy hayot, jamiyat hayoti, shaxsiy qiziqishlar va boshqa Shunga o'xshash qadriyatlar ham u yoki bu darajada o'rin egallaydi. Demak amaliy psixologlar va kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar bu borada tegishli ma'lumotga ega bo'lishsa foydadan xoli bo'lmaydi.

Shunday qilib insoning u yoki bu kasb sohasiga yaroqliligida uning harakter xususiyatlariga kiruvchi shaxs yo'nalganligi hamda qadriyat yo'nalishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois quyida V.Smekal va M.Kuchera tomonidan bildirilgan fikrlar taqdim etilgan. Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi hamda M.Rokich nazariyasi negizida I.G.Senin tomonidan ishlab chiqilgan. Qadriyatlar yo'nalishlari savolnomasi mutaxassislar hukmiga havola etiladi.

formal-dinamik jihatiga kiradi. Shunday qilib, kasbiy tanlovning barcha mazmuniy va formal-dinamik jihatlarini umuman shaxsning kasbiy rivojlanishi ma'lum strategiyasi shakllanishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga K.B.Qodirov tadqiqotining empirik qismi ma'lumotlariga asoslanib xulosa qiladiki, intellektual qobiliyatlar shaxs motivlari yo'nalganlik moyillik tendensiya va boshqalar bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib yoshlarning kasbiy tiklanish asosi sanaladi. Shaxs atrof-muhitga, qadriyatlarga, faoliyat turlari mazmuniga tanlab Shu jumladan o'z aqliy imkoniyatlariga muvofiq munosabatda bo'ladi.

Bizningcha buni aqliy imkoniyatlari sifatida emas, ularning psixologiyadagi a'nanaviy talqindan foydalanilsa, o'z-o'zini anglash refleksiv jarayonlarining shakllanganligi va rivojlanganligi darajasi sifatida ta'riflash aniqroq bo'lardi.

Shunday qilib, yurtimiz psixologlarining kasbiy tanlash va undagi genderlikni turli bosqichlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlili rivojlanishning shaxsiy omillari shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishida hal qiluvchi rolga ishonch hosil qiladi. Anglanilganlik mustaqillikning rivojlanish darajasi ya'ni ijtimoiy etuklikni hisobga olish ko'p jihatdan o'quvchilar kasbiy tiklanish mexanizmini o'rganish imkonini beradi.

Jadval natijalariga muvofiq natijalarni sifat jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, sinaluvchilar orasida o'ziga yo'nalganlik yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan belgilanadi.

O'ziga yo'nalganlik ya'ni oliy nufuzga ega bo'lish motivlarining ustunlik qilishi o'z shaxsining xislatlarini to'liq idora qilish va tahlillarni to'liq idora qilish va tahlil qila olishga intilishi kuchliligi bilan belgilanadi. O'ziga yo'nalgan kishi ko'proq o'z hissiy kechinmalari, fikru xayollari bilan band bo'lib atrofdagilar bilan kam qiziqadi. Xatti-harakatlarining boshqalar tomonidan tan olinishiga, qadrlanishiga, qo'llab-quvvatlanishiga ehtiyoj sezadi, tanqidni uzoq vaqt eslab yuradi tanqiddan odamlarning nazaridan yiroqda yurishni yoqtiradi. Barcha xatti-harakatlarining jamoatchilik tomonidan baholanishiga juda sezgir, hatto, xatti-harakat qilishdan qo'rqadi. Kasbiy faoliyatga kelsak, jamiyatda yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga va Shu sohada o'z mehnati, kasbga sodiqligi bilan obro'-e'tibor ozonishga intiladi.

O'ziga yo'nalgan kishilar agar keng ma'naviyatli, fahm-farosatli inson bo'lsa, undan xudbinlik kayfiyatidagi xulq-atvorni kutish qiyin. Bunday kishilar ko'pincha chuqur mulohazali, o'tkir zehnli insonlar bo'lishadi. Shu jihatdan bunday xulq-atvor ularni boshqalar, ayniqsa, odamlarga yo'nalgan kishilar uchun ko'rimsiz, sirli yoki sovuq istarali qilib ko'rsatishi mumkin.


Metodikaning navbatdagi shkalasi odamlarga yo'nalganlik bo'yicha natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, 1-kurs talabalarida past darajani, 3-kurs talabalarida esa yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi. Bu ulardagi har qanday sharoitda ham odamlar bilan yaqin va iliq muomalada bo'lishga intilish xususiyati mavjudligi bilan belgilanadi. Bunday kishilar shaxslararo munosabatlarning barcha tomonlariga katta ahamiyat beradilar. Ko'pincha ular uchun hayotda eng qadrli narsa boshqalar bilan munosabatda hamkorlikda bo'lish imkonidir. Kuchli darajada odamlarga yo'nalganlik doimo hushchaqchaq, odamlar nazarida bo'lishga, har tomonlama muloqotda bo'lish, cheksiz sohalarda aloqada

Shaxs psixologiyasida harakter va yo'nalganlik muammosi markaziy o'rini egallaydi. N.D.Levitov harakterni inson shaxsining yo'nalganligi, ehtiyojlari, motivlari, intilishlari hamda irodaviy xislatlarida mujassamlashgan psixik tuzilma sifatida tavsiflaydi. Demak, yo'nalganlik harakterning muhim jihatlaridan biri bo'lib odamning o'ziga va tashqi olamning barcha tomonlariga bo'lgan tanlovchan munosabatini aks ettiradi va shaxsning faoliyatida yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur metodika sinaluvchilar guruhida o'tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib Shunga muvofiq jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

Shaxs yo'nalganligi metodikasi bo'yicha natijalarning jadval va diagramma ko'rinishi.

Kurslar	O'ziga	Faoliyatga	Odamlarga
1-kurs	13.8	11.7	10.9
3-kurs	14.7	10.9	13.7



II.2. KASBIY TASAVVURLARNI SHAKLANGANLIGINI DIAGNOSTIKA QILISH

Ma'lumki kasb tanlash jarayoni murakkab bo'lib, bu shaxsdan ijtimoiy psixologik jihatdan tayyorgarlikni talab qiladi. Kasb tanlashdagi farqlarni diognostika qilish maqsadida sinaluvchilar bilan kasb tanlash holatini baholash so'rovnomasi va kasb tanlash so'rovnomasi o'tkazildi va natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Dastavval kasb tanlash holatini baholash so'rovnomasi bo'yicha natijalar tahlilini ko'radigan bo'lsak, mazkur so'rovnoma yigirmatta savolnomadan iborat bo'lib, unga mos ravishda javoblar varianti keltirilgan. Tadqiqot natijalari metodikadagi har bir savolnoma bo'yicha amalga oshirildi. Sinaluvchi guruhiga boshqa jinsdagilarning kasbida ishlayotgan ayollarga munosabatingiz qanday? - degan savol bilan murojaat qilinganda 40% erkaklar ayollarga xos emasligini ko'rsatsalar, 20% kasb tanlashda jins farqlari ahamiyatsiz deb qaraydilar, Shuningdek, 30% ayollarda esa hozirgi kunda kasbni ayollarga, erkaklarga xos deb ajratish holati uchramayapti. Shu bois uni to'g'ri deb hisoblayman.

Ayollarga xos kasblar bilan Shug'ullanayotgan erkaklarga munosabatingiz qanday? - degan savolga aksariyat erkak va ayollar, ya'ni 45% da salbiy munosabat mavjudligi aniqlanadi. Sinaluvchilar guruhiga har qanday kasblarni bajaradigan ayollarga munosabatingiz degan savol bilan murojaat qiladigan bo'lsak erkaklarning 50% va ayollarning 30 % da salbiy holat sifatida ko'rsatiladi. Ularning fikriga ko'ra har qaysi jins vakillari o'ziga mos kasblar bilan Shug'illanishi lozim. Chunki ayrim bir kasblar kishidan jismoniy kuch talab qiladi.

Har qanday kasblarni bajaradigan erkaklarga munosabatingiz qanday? - degan savol bilan murojaat qilishganda 55% erkaklar va 60 % ayollarda bu yaxshi ish emasligi, Shuningdek, har qanday

yaqin munosabatda bo'lishdir. Bunday kishilar uchun odamlarsiz dunyo mazmunsiz bo'lib kundalik hayotda o'z mehnat yoki o'qish jamoalari bilan bog'liq bo'lishga, iliq hissiy munosabatlarni davom ettirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Kasbiy faoliyatlarida o'z kasbdoshlari bilan qalin munosabatda hamjihat bo'lishga intilishlarida bu yo'nalganlik o'z aksini topadi. Mehnat jamoalarida o'zaro yordam va ishonch hislariga katta e'tibor berishadi. Bu yo'nalishdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishilar ko'proq odamlar bilan ishlaydigan sohalarni tanlaydilar va Shu sohadagi kasblarni engil o'zlashtiradilar.

Faoliyatga yo'nalganlik shkalasi ham sinaluvchilar orasida yuqori darajani tashkil qiladi. Bu ulardagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishga qiziqish, topshirilgan vazifani puxta qilib bajarishga intilish xususiyati kuchliligi bilan belgilanadi. Bunday kishi mehnatni tashkil etishdagi odatdagi usulidan tezda zerikib qoladi va Shu sababli doimiy ravishda ish jarayonini o'zgartirib mukammallashtirib borish orzusi bilan yuradi. Vazifani to'liq va mukammal bajarishga moyillik javobgarlik hissi Shu bilan birga ishdan mehnat faoliyatidan zavq olish, mehnatni qadrlash, unga vujudi bilan kirishib ketishi, mehnatga e'tiqod va Shu sababli o'z sohasini chuqur va mukammal o'rganishga moyillik bu yo'nalishdagi kishilarga xos xislatlardandir. Bunday kishilar ish yuzasidan asosli va chuqur hamkorlik qilishiga intiladilar. Odamlar uchun foydali bo'lgan umumiy maqsadga erishish yo'lida o'z fikrlarini ilgari surishga qodir bo'lib, qat'iy va ma'lum bir kasb doirasida mustaqil va ijodiy fikrlari bilan ajralib turadilar.

Metodika natijalaridan tahlili qiladigan bo'lsak, kasb tanlash jarayonida shaxs yo'nalganligi muhim sanalishi mumkin.

Ayollar jamoasida faoliyat yuritadigan erkaklarga munosabatingiz qanday degan savolga, aksariyat sinaluvchilar Shunday fikrni qayd etadilarki, ya'ni agar kasbning talablariga mos kelsak bu e'tirozga sabab bo'lmaydi. Lekin kasbiga mos bo'lmasa u ijobiy holat deb qaralmaydi.

Erkaklar jamoasiga faoliyat yuritadigan ayollarga munosabatingiz degan savol bilan murojaat qilinganda albatta 30 % ijobiy, 40 % betaraf, 30 % esa salbiy holat sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Kasb tanlashda jins xususiyatlari ahamiyatlilikiga egami degan savol bilan murojaat qilinganda, sinaluvchilarning 1/3 qismida ahamiyatga ega, chunki deyarli ko'p kasblarga jinsga bog'liq talablar qo'yilgan bo'lib, bu o'z navbatida inobatga olish lozimligini o'qtililadi.

Kasb tanlashda nafaqat shaxsning iqtidori, iste'dodi, layoqati, balki shaxs xususiyatlari ham mos tushmasligi lozim. Ayniqsa, kasblar bilan bog'liq professiogrammalarni yaratilishi ham Shunga bog'liqdir. Shu bois shaxslar kasb tanlashda professionramma bilan tanishtiriladi va bu shaxsning xususiyat sifatlariga qay darajada mosligini aniqlab beradi.

Yuqoridagi fikrlarga qarab sinaluvchilar guruhiga kasb tanlash bilan shaxs xususiyatlarini bog'liqlik darajasini qanday baholaysiz degan savol bilan murojaat qilinganda 40 % yuqori, 45 % o'rta, 15 % past darajani tashkil qilganligi ma'lum bo'ldi.

Sinaluvchilarga kasb tanlashda jins xususiyatlari muhimmi? - degan savol bilan murojaat qiladigan bo'lsak, 40 % sinaluvchi muhim, har bir jins vakili o'ziga mos kasbni tanlagani yaxshi, 45 % esa agar shaxsning qiziqish imkoniyatlari mos kelsa hech qanday e'tirozlar mavjud bo'lmaydi, 15 % esa ayollarga xos kasblarni faqat ayollar bajarsa maqsadga muvofiqdir degan fikrni bildirganlar. Shaxsda kasb tanlashdan oldin bevosita kasblar haqida tasavvurlari muhim sanaladi. Ayniqsa, kasblar haqida axborot, ma'lumot, tuShuncha, tasavvurlarni boyitish, ularni

kasb talablari, har qanday jinnga mos tushmasligini hisobga olgan holda salbiy holat sifatida ko'rsatiladi.

SHaxsning muhim bir sohada faoliyat ko'rsatishi murakkab qator jarayon hisoblanadi. CHunki har qanday inson ham bir sohada yillar davomida faoliyat ko'rsatishi uchun kuch-imkoniyatlar darajasi, shaxsiy tayyorgarliklarni talab qiladi. Undan tashqari, hamma insonlar ham bunday imkoniyatlarga ega bo'lmaydilar. Shu bois sinaluvchilar guruhida uzoq vaqtdan buyon bir sohada faoliyat yuritadiganlarga munosabatingiz degan savol bilan murojaat qilishganda 55 % va 60% bu ijobiy holat ekanligini baholaydilar.

Shuningdek, kasb tanlashda ayrimlar kasbning jamiyatdagi o'rni, mavqeiga qarab e'tibor qaratadi. Bu esa shaxsning imkoniyati, qiziqish layoqatlari, Shu kasb tomonidan qo'yiladigan talablarga mos kelish - kelmasligi bilan belgilanadi. O'zi tuShunmagan holda faoliyat yuritadiganlarga munosabatingiz degan savol bilan murojaat qiladigan bo'lsam 46% va 54 % sinaluvchilarda samimiy holat ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, kasbiy faolitning asosiga tuShunmagandan keyin qanday qilib bu sohada faoliyat yuritishi mumkin, albatta bu g'ayri tabiiy hodisadir.

Kasblarni tez – tez o'zgartiradigan insonlarga munosabatingiz qanday savoli bilan murojaat qiladigan bo'lsak, 40 – 50 % sinaluvchilarda bu kasbga nisbatan qo'nimsizlikni yuzaga keltirib chiqaradi degan javob bo'lgan. Bunda inson uchun qanday kasblar mos yoki mos emasligi muhimligi bilan ajralib turadi.

Sinaluvchilarga o'z kasbining mohiyatini bilmaydiganlarga munosabatingiz qanday degan savol bilan murojaat qilinganda 70 va 77% ida bu juda yomonligini chunki har bir inson biror sohada faoliyat yuritar ekan Shu sohaga doir bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi. Agar inson Shu kasbiy faoliyatda qay yo'l, usul va vositalarda foydalanishini bilmasa albatta bu kasbiy inqirozni yuzaga keltiradi degan javob bo'lgan.

kasblarga qo'yiladigan majburiyatlarni to'la qamrab olishi bilan izohlanadi.

Kasb tanlashdagi qat'iyatsizlikni siz qanday baholaysiz degan savol bilan murojaat qilganimizda, ularda ma'lum bir kasblar haqidagi tasavvur va tushunchalarning kengligi bilan izohlanadi.

Metodika natijalaridan Shuni xulosa qilish mumkinki, kasb tanlash jarayonida gender farqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bunda insonlarning kasblar haqidagi bilim, ko'nikma va malakalari asosiy o'rinni egallaydi. Shaxsda kasb tanlash jarayonida jins xususiyatlarini hisobga olish lozim. Chunki kasbga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish uchun jinsga mos kasblarni tanlash muhim sanaladi.

II.3. KASBIY USTANOVKALAR VA KASBIY TASAVVURLARNING O'ZARO MUNOSABATI

Tadqiqotning navbatdagi metodikasi kasbiy ustanovkalarni shakllanganligini o'rganishga qaratiladi. Mazkur metodika sinaluvchilar guruhlarida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalarini yaqqol ifodalash maqsadida jadval va diagrammada aks ettirildi.

Kasbiy ustanovkalarni o'rganish metodikasi bo'yicha natijalar tahlili (o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha)

2-jadval

Sinf	Qat'iyatsizlik	Ratsionallik	Kasb istiqboliga optimistik munosabat	Kasb tanlasha o'zimkoniyatlarini yuqori baholash	Kasb tanlasha boshqalarga bog'liqlik
1-kurs	22,3	24,6	24,2	22,6	23,7
3-kurs	22,6	24,6	27,5	25,9	17,6

ongli kasb tanlashlariga yordam beradi. Sinaluvchilarning 25 % o'rta, 20 % past darajani tashkil etishi muhim hisoblanadi.

Kasb tanlashda shaxs xususiyatlarini ahamiyatlilik darajasini qanday baholaysiz? - degan savolga har qanday kasbda shaxsning xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi degan javob olingan. Sinaluvchilarning 30% ahamiyatli, 55 % ahamiyatlilik o'rta ko'rsatkichni, 15 % ida past darajasini tashkil qilishini bildirishgin. Kasb tanlash uchun avvalo shaxs ham jismonan, ham fiziologik, ham psixologik jihatdan tayyor bo'lishi lozim. Shu bois sinaluvchilar guruhiga kasb tanlashda shaxsning tayyorgarligini qanday baholaysiz degan savol bilan murojaat qilinganda, 40% muhim, chunki, kasb tanlash uchun avvalo shaxs nima uchun tanlaganini bilishi, unga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirishi lozim deya, 50 % o'rtacha darajani, ya'ni kasbiy malaka, ko'nikmalarni tanlash jarayonida ham shaxs tayyorlanib borishi muhimligini ta'kidlashgan.

Sinaluvchilarga shaxsdagi qiziqishi kasb tanlashda qanday rol o'ynashni o'rgatish maqsadida mazkur savol bilan murojaat qilinganda ularning 30 % yuqori, 55 % o'rta, 15 % past ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rsatib o'tadilar. Ayniqsa, kasb tanlash uchun Shu sohaga nisbatan shaxsning qiziqish qobiliyatlarini muhim bo'lishi ahamiyatliligini anglatadi.

Ma'lumki, shaxs kasb tanlashida faqatgina o'zi ishtirok etmay, balki atrofdagi insonlarning ta'siri muhim ahamiyatga ega. Shu bois sinaluvchilar guruhiga kasb tanlashda atrofdagilarning ta'siri muhimmi degan savol bilan murojaat qilinganda, 30 % ahamiyatga ega, 42 % o'rtacha ahamiyatga ega, 28 % past darajada ahamiyatga ega deb e'tirof etiladi. Bundan ko'rinadiki, kasb tanlashda atrofdagi insonlar jamoasi, ota-ona va tengdoshlari muhim ta'sir ko'rsatadi.


Sinaluvchilar guruhiga kasblar olamini qanday idrok qilasiz degan savol bilan murojaat qilganimizda, ularning aksariyat qismi kasblar haqida to'liq tasavvurga egaliklarini bildirgan va bu

Sinaluvchilar guruhida bo'lajak kasbning istiqboliga nisbatan optimistik munosabat barcha shkallalar ichida ustuvorligi bilan belgilanadi. Unga ko'ra 3 kurslarda 27,5% ni, 1-kurslarda 24,2, ya'ni past darajani tashkil qiladi. Bu shaxsdagi o'z kasbiy kelajagini ideallashtirish, omad kulib boqishiga umid bog'lash, hayotdagi har qanday muammoning o'z-o'zidan hal bo'lib ketishi mumkinligiga ba'zan haddan ortiq ishonish bilan bog'liq bo'lgan dunyoqarashlarning ustunligida ko'rinadi.

Kasb tanlashda to'rtinchi yo'nalish o'z imkoniyatlarini yuqori baholash bo'yicha sinaluvchilar guruhi natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, 3- kurslarda u 25,9% ni, 1-kurslarda esa 22,6 o'rta ko'rsatkichni egallaganligini ko'rishimiz mumkin. Olingan natijaga ko'ra shaxsning o'z kuchiga va qobiliyatlariga haddan tashqari ortiq baho berishi, har qanday qiyinchiliklarni engishga o'zini tayyor deb o'ylashi, ko'tarinki ruhda orqa oldini o'ylamay, ba'zan engiltaklik bilan har qanday to'siqlarga qarshi borishdan qo'rqqanligi, o'ziga haddan ortiq ishonishi kabi xislatlari va barqaror e'tiqodlari ustanovkasi, ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kasb tanlashda boshqalarga bog'liqlik 1-kurslarda 22,6 % va 23,7% ni tashkil qiladi. Sinaluvchilarda teng ko'rsatkichni tashkil qiladi va bu shaxsning ijtimoiy etilmaganligi bilan bog'liq ravishda erkin va mustaqil bir fikrga ega emasligini, har qanday kishining maslahatlariga osonlik bilan berilishini, ishonuvchanligi tufayli aniq bir kasbiy qarorga kelishda qiyinchilik sezayotganligini ifoda etadi.

Metodika natijalaridan Shuni ko'rish mumkinki, sinaluvchilar guruhlarida bo'lajak kasbning istiqboliga nisbatan optimistik munosabat muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin va bu shaxsning to'g'ri kasb tanlashining asosiy mezon sifatida ko'rsatib o'tiladi.



Jadval va diagrammadagi natijalarga asoslanib quyidagi mulohazalarni keltirib o'tish lozim. Unga ko'ra kasb tanlashda qat'iyyatsizlik yo'nalishi 1-3 kurslarda 22,6% ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ulardagi kasbiy shakllanish nuqtai nazaridan kelajak haqida aniq tasavvurlar mezonlarning yo'qligi, kasblar olami haqida to'liq axborotga ega emaslik, Shuningdek, o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik, bir qarorga kela olmaslik, ikkilanishlarning ko'pligi bilan tavsiflanadigan tuyg'ular, hamda Shunga mos xulq-atvorlarida o'z ifodasini topadi.

Kasb tanlashda ikkinchi yo'nalish ratsionallik teranlik omili bo'lib, bu 1-3 kurslarda 24,3% va 24,6% ni tashkil qiladi. Aynan mazkur yo'nalish bo'lajak kasbiy hayotni ongli ravishda ogohlik bilan belgilash, bilib turib aniq reja asosida aql bilan mustaqil ravishda harakat qilish, har qadamini obdon o'ylab donolik bilan bosish kabi ustanovkadir.

manfaatlari bilan o'zinikini uyg'unlashtira olish g'oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida guruhii muzokaralar rolli o'yinlarning eng optimal variantlari sinab mashq qilinadi.

Odatda trening shaxsdagi u yoki bu ijtimoiy muammolarni hal qilishda jiddiy qiyinchilikka uchragan sharoitlarda o'tkaziladi, ya'ni treningning tashabbuskori ko'p hollarda yolg'izlik, uyatchanlik, tortinchoqlik, turli depressiyalar tufayli qiynalib qolgan shaxs bo'ladi. Maxsus tashkil etilgan kommunikativ mashqlar mobaynida u yoki bu holatlardan chiqib ketish yo'llarini o'rgatadi.

Guruhda tashkil etilgan muloqot muhitida odam o'zidagi ishonchsizlik, tortinchoqlik kabi salbiy sifatlardan xalos bo'lishi imkoniyatiga ega va u o'zini avvaliga nisbatan ijobiyroq idrok qila boshlaydi.

Trening o'zi qadimda psixologiyaning bir metodi bo'lib, o'sha paytlarda trening tuShunchasi o'z ichiga qobiliyatlilik, mahoratlilik, muloqotchanlikni insonlarda rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Psixologiyaga trening tuShunchasini M.Farverg tomonidan kiritilgan.

Aytishlaricha, birinchi marta trening o'tkazilganda odamlarda ularning hayotdagi yo'nalish va boshqa insonlar bilan bo'lgan muloqotdagi muammolar ko'rib chiqilgan bo'lib, tadqiqotchilar K.Levinning AQSHdagi Betele shaharchasida o'tkaziladi va bu tadqiqot o'tkazilgan guruhga T-guruh deb nom beradi. Bundan keyin tadqiqotning yana bir bosqichi bo'lgan bu bosqichda treningning maqsadi Shunday bo'lgan:

-guruhda qatnashadigan ishtirokchilar ham ishlaydigan va o'qiydigan insonlar jamoasidan iborat bo'ladilar. Endi ular Shunday muammoni o'rta qo'yadilar, ulardan ko'pchiligi aytib o'tilganidek ham ishlashadi, ham o'qishadi. Lekin ular hech qachon o'zlarini tashqaridan, ya'ni kundalik faoliyatlarida, o'qishda va guruhda qanday tutishlarini o'zlari bilmaydilar va bunday faoliyatlarda qanday qatnashish kerakligiga ahamiyat bermaganlar, bundan tashqari, ularning bunday kundalik

III BOB. KASBIY TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING MEXANIZMLARI

III.1. KASBIY TASAVVURLARNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OB'JEKTIV VA SUB'JEKTIV OMILLARNI O'RGANISH

“Trening” so‘zi inglizcha “o‘qitish, mashq qilish yoki o‘rgatish” degan ma‘nolarni anglatadi. Psixologik trening ta‘sir ko‘rsatish metodi sifatida jahon amaliyotida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ijtimoiy psixologik trening shaxslararo bir-birini tuShunish, muloqotning empativ potentsiallarini oshirish ichki muammolarni hal etishga imkon tug‘diradi. Kundalik hayot vaziyatlardagi reaksiyalar jiddiy yashirin tarzda bo‘lsa, guruhlardagi bu jarayon ochiq tarzda vujudga keladi va guruhlarda «yashashni qayta boshlash» mumkin. Moslashish va rivojlanishda halaqit beruvchi xulqdagi sterotiplarni bardosh bilan engish tevarak-atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlardagi yangi malakalarni o‘zlashtirishi mumkin.

Psixologik trening-psixoterapiyaning murakkab hamda eng samarali metodlarida biri bo‘lib, uning muvaffaqiyatli o‘tishi guruh a‘zolarining istaklari, Shu muammolarni tan olinishi, nimanidir o‘zlashtirishga intilishiga bog‘liq bo‘ladi. Psixologik treningning muvaffaqiyatli o‘tishi trenerga emas, balki barcha guruh a‘zolarining hamkorlikdagi faol harakatlarini talab etadi.

Amaliy muloqot treningi-ijtimoiy psixologik treningning bir ko‘rinishi bo‘lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo‘ladigan kommunikativ malaka va ko‘nikma, bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot vositasida muzokaralar olib borishi yuzasidan hamkorlik qilish yo‘l-yo‘riqlarini birgalikda topish uchun katta auditoriya oldida so‘zlashga o‘rgatish, majlislar o‘tkazish, janjalli holatlarda o‘zini to‘g‘ri tutishni malakasini hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa trening qatnashchilari ongiga birovlarini tuShunish, o‘zini-o‘zini o‘rniga qo‘ya olish, boshqalar

Ikkinchidan, hamma keltirib o'tilgan ifodalarda maqsadli bog'liqlik ko'zga tashlanmaydi.

Psixologik treninglarni maqsadlari quyidagi masalalarda aniqlashtiriladi.

1. Ma'lum ijtimoiy-psixologik bilimlarni egallash;
2. O'zini boshqalarni adekvat to'liq tuShunishni rivojlantirish;
3. Shaxs xususiyatlari nuqsonlarini yo'qota olishning diagnostika qilishga halal beruvchi to'siqlarni bartaraf qilish;
4. Shaxslararo munosabatlarning individual usullarini o'tkazishni samarali usullaridan qo'llash, treningda qatnashishga erkinlik tamoyillari.

Trening o'tkazish uchun qo'yiladigan talablar quyidagilar:

- Trening uchun qulay shart-sharoitlar;
- Qatnashchilarni trening vazifalari bilan tanishtirish, ish guruhini qonun-qoidalar, g'oyalarini aniqlab olish;
- Qatnashchilarga o'zini diagnostika qilishga yordam berish;
- Trening o'tkazuvchi uchun tavsiyalar;
- Trening mashg'ulotlarida qatnaShuvchilar uchun o'z ustilarida mustaqil ishlashlarida imkoniyat yaratish kerak.

Trening o'tkazish uchun shart bo'lgan ishlar:

1. Muhokamani tashkil qilish va ish guruhi uchun qoidalar ishlab chiqish, har bir mashg'ulotda yuqoridagilar bo'lganda qoidani u yoki bu bo'linmalarini batafsil tuShuntirish;
2. O'tkaziladigan trening mashg'ulotlarining maqsadini tuShuntirish, navbatdagi mashg'ulotlar haqida batafsil izohlab berish. QatnaShuvchilar savollariga javob berish ular bajarayotgan ishlarni nazorat qilish;
3. Navbatdagi mashg'ulot etyudlari mazmunini trening maqsadi asosida tahlil qilish, trening haqida fikr yuritishda qatnaShuvchilar uchun erkinlik yaratadi;

hayotlariga qanday qarashlari hamda ular boshqalarnikidan farqli jihatlari mavjudligi kabi muammolarni echishga harakat qilganlar.

K.Levinning tasdiqlashicha, ko'pgina insonlar o'zlarining xulq-atvori ko'pincha guruhlar ichida o'zgarar ekan, lekin o'zlari yolg'iz bo'lganlarida bunday hol ya'ni o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Shuning uchun bu insonlar guruh ichida o'tirib, o'zlarini guruh ichida qanday tutayotganligi haqida eng rost gaplar va fikrlarni eshitishga va Shu insonlarni ko'z bilan o'ziga qarashga va o'zini tuzatishga harakat qilishga o'rgatadi.

Ijtimoiy psixologik treninglarga xorij psixologlari tomonidan qator ta'riflar keltiriladi va bu uning mazmun mohiyatini asoslashga yordam beradi. L.A.Petrovskaya tomonidan ijtimoiy psixologik trening – bu psixologik ta'sirlar amaliyoti guruhli ish metodlariga asoslanganligi ko'rsatib o'tiladi. G.I.Marasanovni ta'kidlashicha, ijtimoiy psixologik trening amaliy psixologiyani faol metodlari sifatida «qisqacha psixologik lug'atda» esa quyidagicha ta'rif uchraydi. Unga ko'ra «ijtimoiy psixologiyani amaliy bo'limi, guruhli metodlarni o'z ichiga olgan bilim ko'nikma va o'z-o'zini anglash malakalarini shakllanishida odamlarni o'zaro muloqoti va muomalasini guruhda rivojlantirishdir».

Ijtimoiy-psixologik trening tuShunchasining mohiyati K.M.Jukov, L.A.Petrovskaya va P.V.Rastyaninkovlar tomonidan quyidagicha asoslaniladi. «Ijtimoiy psixologik trening amaliy psixologiyaning sohasi bo'lib guruhli faol metodlarni psixologik ishlatishdan iborat muloqotdagi kompetentlik yoki kommunikativ komponentlarni oshirishdan iborat jarayondir».

Yuqorida keltirilgan ta'riflarning tahlillaridan Shu narsani ko'rish mumkinki, ijtimoiy-psixologik trening tuShunchasini birlashtirib turadigan va umumiylikda ikkita narsa ajratiladi.

Birinchidan, ko'pchilik mualliflarni fikri bir joydan chiqadi, ya'ni ishlash vositalari bu faol metodlardir.

10. O'ziga ishonch, e'tiqodning mavjudligi, real tafakkur va irodaning bo'lishi.

Trening ishtirokchilariga quyidagicha maxsus talablar qo'yiladi:

- muhokama qilinayotgan muammoda har bir ishtirokchining ijtimoiy tasavvurlari doirasida ma'lum o'rin egallashi shart;

- trening ishtirokchilari barcha dalillarini faqat ichki his bilangina sezish emas, balki mantiqiy fikrlarini ham keltirishlari, ularning guruhdagi «o'zgalar» fikri bilan solishtirilishi va o'zining o'ziga xos tafakkuri esa mahsuldorroq ekanligini his qilishi zarur;

- trening davomida har bir ishtirokchi sherigining fikrini to'g'ri baholashi, uning fikriga qo'shilishiga urinib ko'rishi va faqat Shundan keyingina o'z fikrini bayon etishi mumkin;

- treningning yana bir mohiyati – rad etilgan fikr o'rniga boshqasi ya'ni yangi, erkin fikr taklif etilsa, sherigining fikri rad etilgan hisoblanishini ijobiy deb e'tirof etishi kerak.

1-mashg'ulot "Kelgindilar" o'yini

O'yindan ko'zlangan maqsad jamiyat va ayrim inson turmushida mehnatning rolini ko'rsatib berishdan iborat. O'yin baxtga erishish yo'lida mehnatning rolini tuShunish muammosi bilan bog'langan bo'lishi, uzoq kelajakdagi kasbiy maqsadning aks ettirishi va uning boshqa hayotiy maqsadlarga muvofiq bo'lishini belgilab berishi lozim. O'yin jamiyat turmushida mehnatning roli, mehnat va shaxs mavzularini o'rgangan holda kasb tanlash kursi doirasida foydalanish mumkin.

O'yining o'tkazish shartlari: O'yin o'quvchilarning butun bir sinfi bilan (7-8 sinflar) ishlashga mo'ljallangan. O'yin uchun ajratilgan vaqt 30-40 daqiqa. O'quvchilarni ruchka va qog'ozlari bo'lishi kerak.

O'yin tartibi - ushbu o'yin zo'r berib tayyorgarlik bosqichsiz o'tkazilishi mumkin. Jamiyat turmushida mehnatning roli to'g'risidagi ma'ruza materialini maktab o'quvchilariga o'yin

4. Qatnashchilarning emotsional holatini nazorat qilish ularga psixologik yordam ko'rsatish;

5. Har bir mashg'ulotga yakun yasab uyga beriladigan vazifani belgilash;

6. Dars oxirida qatnaShuvchilar uchun siz haqingizda o'z fikrlarini bayon qilishga imkon berishdir.

Trener shaxsiga quyiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. U avvalo o'zgalar shaxsiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni va o'zgalar psixologiyasini bilishi ular ustidan hukmronlikning bir shaklidir, - degan naqlni esdan chiqarmaslikdir. Lekin bunda pedagogik alturizm, ya'ni o'zgalar manfaatini o'zinikidan ustun qo'yish xislati mavjud bo'lishi kerak;

2. O'zining shaxsiy fazilatlari va psixologiyasini mukammal bilishi va uni boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur;

3. Har qanday chigal yoki ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketishgina emas, balki uning oldini ola bilish, vaziyat to'g'ri kelganda esa uni bartaraf etib ishtirokchilarga to'g'ri maslahat bera olish;

4. Empatiya, ya'ni o'zgalar holatini chuqur his qila olish qobiliyatining mavjudligi;

5. O'zgaruvchanlik, moslaShuvchanlik, o'tkir aql sohibi bo'lish, kutilmagan holatlarga o'zini oldindan tayyorlash, o'zini yo'qotmaslik;

6. O'z xatti-harakatlarini doimo ma'lum maromda ushlash va kerak bo'lsa o'zidagi motorikani rivojlantira olish;

7. O'zgalar nutqi reaksiyalarini aniq tuShunish va tinglash, mimika va harakatlar mohiyatini to'g'ri talqin etish va tuShunish;

8. Tinglovchilar va o'yin ishtirokchilarining ehtiyojlari, qiziqishlariga qarshi bormaslik;

9. Rejalashtirish qobiliyatini bo'lishi, bunda kutilayotgan jarayonning barcha muhim va nomuhim jihatlarini oldindan taxminan bo'lsa ham tasavvur qilib aniq reja tuza olish;

darhol ularga so'z beradi. "O'zga sayyoralik"lar o'z sayyorasi haqida qisqacha 5-daqiqa gapirib beradi.

6. O'yinni olib boruvchi jurnalistlarga savollar berishni, "o'zga sayyoralik"larga esa bu savollarga qisqacha javob qaytarishni taklif qiladi. Eng qiziqarli savolni berish Shu bosqichdagi musobaqaning asosiy jihatidir. Ba'zi savollarni o'yinini olib boruvchining o'zi berishi mumkin. Lekin buni jurnalistlarga berish yaxshiroq, chunki muhokama chog'ida o'quvchilarni savollari tahlil qilinishi lozim.

7. UchraShuv tugashiga 1 daqiqa qolganda, ya'ni o'yin boshlangandan 14 minut o'tgach, o'yin olib boruvchi o'yin qatnashchilarini bu haqda ogohlantiradi va o'yining 15 minutida "kelgindilar" g'oyib bo'lganliklarini e'lon qiladi. "G'oyib bo'lgan" mehmonlarga sinfda o'z joylarini egallashlari taklif qilinadi.

8. So'ngra o'yining barcha qatnashchilari matbuot konferensiyasidan olgan dastlabki taassurotlari to'g'risida qisqacha axborot yozishlari, bu axborotlarda ikki jihat - sivilizatsiya rivojlanish darajasiga baho berish va ushbu sivilizatsiya bilan aloqa bog'lashning maqsadga muvofiq jihatlari aks ettirilishi lozim. Jurnalistlar o'zlari qaysi organ vakili ekanliklarini o'z varaqalariga yozib qo'yadilar va imkoni bo'lsa o'z xabarlariga ko'zga tashlanib turadigan nomlar beradilar. Kelgindilar esa boshqa sivilizatsiyaga mansub ekanliklarini qayd qiladilar. Bularning hammasi uchun 5-7 daqiqa vaqt beriladi.

9. O'quvchilarning hammasi xabarlarni yozib ulgurganliklari yoki ulgurmaganliklaridan qat'iy nazar 5-7 daqiqadan keyin xabarlar yig'ishtirib olinadi. Birinchi bo'lib yozganlarni jurnalistik operativlik uchun maqtab qo'yish mumkin. To'plangan xabarlar ovoz chiqarib o'qib beriladi. O'qib berishni ikki o'yin qatnashchisiga, ayniqsa, "passivlarga" taklif qilish maqsadga muvofiqdir. Ular xabarlarni navbatma-navbat o'qib beradilar. Ushbu tartib o'yini muhokama qilishga tayyorgarlik ko'rishdir. Bu bosqich uchun ajratilgan vaqt 5-7 daqiqa.

oldikdan ham, o'yindan keyin ham taklif qilish mumkin. Ana Shu materialning tarkibiy qismlaridan o'yin natijalarini muhokama qilgan chog'da ham foydalanish mumkin. O'yinning o'zida quyidagi bosqichlar shartli ravishda namoyon bo'ladi:

1. Sinf o'quvchilaridan 2-3 kishi tanlanadi ular "kelgindilar" bo'lishadi. Ularni sinf peshqadamlaridan bo'lishi maqsadga munosiqdir.

2. Quyidagi mazmundagi umumiy yo'l-yo'riq beriladi: boshqa sivilizatsiya namoyondalari sayyoramizga kelganliklari haqidagi xabarni kutilmagan bir paytda oldik. G'oyat xilma-xil gazeta-jurnal dasturi uyushtirildi. Texnikaviy jihatdan murakkabligi tufayli "kelgindi"larning bo'lish vaqti 15 daqiqa bilan cheklangan. Shu vaqt ichida bizning sivilizatsiyamiz bir-birlari to'g'risida eng asosiy narsalarni bilib olishi lozim.

3. "Kelgindi"larga og'zaki yoki yozma tarzda quyidagi mazmunda darhol yo'l-yo'riq beriladi. "Hozir sizlar sinfdan chiqib qanday maqsadda va qaerdan kelganligingizni 3-4 daqiqa ichida o'ylab aytib berasiz. Sayyorangiz haqida kichik hikoya tayyorlang, bunda sizning aholingiz nima bilan Shing'allanayoganligini, qanday yashayotgani to'g'risida javob berishga tayyor bo'lingiz. O'zingizning "O'zga sayyoralik" tashqi ko'rinishingiz to'g'risida o'ylab ko'rishingiz mumkin.


4. "Kelgidi"lar yo'lakda tayyorgarlik ko'rayotganlarida jurnalistlarga, ya'ni sinfda qolganlarga quyidagi mazmunda yo'riqnoma beriladi. Sizlar u yoki bu agentlik, radio, teleprogrammalar, jurnallar yoki gazetalarning vakillarisiz, xabar berishingizdan oldin ayni qaysi organning vakili ekanligingizni o'ylab ko'ring. Sizlar bu savollarni o'z sayyorasi haqida gapirib bo'lganlaridan keyin berasizlar. Savolni bera turib qo'lingizni ko'taring va oldindan o'zingiz vakil bo'lgan organ nomini ayting. Savollar lo'nda va qiziqarli bo'lishi kerak.

5. Olib boruvchi "O'zga sayyoralik"larni taklif qiladi, ularni samimiy tabriklaydi va uchraShuv vaqti cheklanganligini eslatib

tashkil qilinadi. Unga ko'ra ular bilan ikki oy davomida trening mashg'ulotlari o'tkazildi. Trening mashg'ulotlaridan so'ng ular bilan yana qayta diagnostika ishlari amalga oshirildi. Sinaluvchilar guruhini ikkiga ya'ni tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Dastlab shaxs yo'nalganligi metodikasi bo'yicha natijalari to'xtalamiz.

Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi bo'yicha natijalarning jadval va diagrammadagi ko'rinishi.

Sinaluvchilar	O'ziga	Faoliyatga	Odamlarga
r	a	a	a
Nazorat guruhi	18,6	17,2	15,6
Tajriba guruhi	19,6	18,3	16,4



2-mashg'ulot "Uyushma" o'yini

O'yindan kuzatiladigan maqsad: maktab o'quvchilarini turli kasblarga bo'lgan haqiqiy munosabatini aniqlashdan va imkonni bo'lsa ana Shu nisbatni to'g'irlab qo'yishdan iborat. Ushbu o'yini "professogramma" mavzusini o'rganish chog'ida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. O'yining nisbatan oddiyligini va his-tuyg'uga boy bo'lishi "Kasb tanlash kursi" doirasidan tashqarida, masalan tuman markazlari negizida zavodlarning kasb tanlashga yo'llovchi laboratoriyalarida maktab o'quvchilari bilan uchrashgan chog'ida foydalanish imkonini beradi.

O'yinni o'tkazish shartlari: o'yinda butun sinf (7-8 sinf) o'quvchilari, Shuningdek, barcha yuqori sinflarning o'quvchilari qatnashadilar. 1-o'yin uchun 15 daqiqa, undan keyingi o'yinlar uchun 5-7 daqiqadan vaqt ajratiladi. O'yin uchun sinf doskasi zarur.

O'yin tartibi (bosqichlari): o'yin zo'r tayyorgarliksiz boshlanadi (1-2 bosqichlarida o'yinga kirishiladi).

1.O'yinning nomi e'lon qilinadi va 3 ta asosiy o'yinchi tanlanadi. Sinfdagi har qanday o'quvchi bunga saylanishi mumkin.

2. O'yin shartlari e'lon qilinadi.

Dastlab uch kishi sinfdan chiqadi. Sinf esa ko'nglida biron kasbni o'ylab qo'yadi. So'ngra uch kishi sinfga kirib uyushmaga oid savollar, masalan bu kasb qanday rangni, qanday hidni eslatadi, qanday mebdan foydalaniladi va Shu kabi boshqa savollar yordami bilan jumboqni bilib olishga urinadi. O'quvchilardan uyushma o'yinini o'ynaganmisiz deb so'rash mumkin.

III.2. NAZORAT TAJRIBALARINING NATIJALARI

Shaxsda kasbiy tasavvurlarni shakllanishi borasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, kasb tanlashda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelganlar bilan alohida ishlar

ishdan mehnat faoliyatidan zavq olish, mehnatni qadrlash, unga vujudi bilan kirishib ketish, mehnatga e'tiqod va Shu sababli o'z sohasini chuqur va mukammal o'rganishga moyillik bu yo'nalishdagi kishilarga xos xislatlardandir. Tadqiqotning navbatdagi metodikasi kasbiy ustanovkalarni shakllanganligini aniqlash metodikasi hisoblanadi. Metodika sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinadi. Kasbiy ustanovkalarni aniqlash metodikasi bo'yicha natijalarning jadval va diagrammada aks ettirildi.

Sinaluv- chilar	Qat'iyat -sizlik	Ratsion al-lik	Kasb istiqboli- ga optimisti k munosab at	Kasb tanlashda o'z imkoni- yatlarini yuqori baholash	Kasb tanlash- da boshqa- larga bog'liq lik
Nazorat guruhi	18.2	17. 6	16.5	18.9	18.2
Tajriba guruhi	19.7	18. 7	17.2	20.5	19.7

O'ziga yo'nalgan kishi ko'proq hissiy kechinmalari, fikru va xayollari bilan band bo'lib, atrofdagilar bilan kam qiziqadi. Xatti-harakatlarining boshqalar tomonidan tan olinishiga, qadrlanishiga, qo'llab - quvvatlanishga ehtiyoj sezadi. Tanqidni uzoq vaqt eslab yuradi. Tanqiddan, odamlarning nazaridan yiroqda yurishni yoqtiradi. Barcha xatti-harakatlarning jamoatchilik tomonidan baholanishiga, juda sezgir xatti-harakat qilishdan ko'rqadi. Kasbiy faoliyatga kelsak, jamiyatda yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga va Shu sohada o'z mehnati, kasbga sodiqligi bilan obro'-e'tibor qozonishga intiladi.

Metodikaning navbatdagi shkalasi, odamlarga yo'nalganlik bo'yicha natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, barcha guruhlarda ko'rsatkichni tashkil qiladi. Bu ulardagi har qanday sharoitda ham odamlar bilan yaqin va iliq muomalada bo'lishga intilish xususiyati. Bunday kishilar shaxslararo munosabatlarning barcha tomonlariga katta ahamiyat beradilar. Ko'pincha ular uchun hayotda eng qadrli narsa boshqalar bilan munosabatda hamkorlikda bo'lish imkonidir. Kuchli darajada odamlarga yo'nalganlik doimo xushchaqchaq, odamlar nazarida bo'lish, har tomonlama muloqatda bo'lish cheksiz sohalarida aloqada yaqin munosabatda bo'lishidir. Bunday kishilar uchun odamlarsiz dunyo mazmunsiz, bo'lib kundalik hayotda o'z mehnat yoki o'qish jamoalari bilan bog'liq bo'lishga iliq hissiy munosabatlarni davom ettirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Kasbiy faoliyalarida o'z kasbdoshlari bilan qalin munosabatda hamjihat bo'lishga intilishlarida bu yo'nalganlik o'z aksini topadi.


Faoliyatga yo'nalganlik shkalasi ham sinaluvchilar orasida yuqori darajani tashkil qiladi. Bu ulardagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalani hal etishga qiziqish, topshirilgan vazifani puxta qilib bajarishga intilish xususiyati. Bunday kishi mehnatni tashkil etishdagi odatdagi usuldan tezda zerikib qoladi va Shu sababli doimiy ravishda ish jarayonini o'zgartirib mukammallashtirib borish orzusi bilan yuradi. Vazifani to'liq va mukammal bajarishga moyillik, javobgarlik xissi Shu bilan birga

ba'zan haddan ortiq ishonish bilan bog'liq bo'lgan dunyoqarashlarning ustunligida ko'rinadi.

To'rtinchi yo'nalish, kasb tanlashda o'z imkoniyatlarini yuqori baholash bo'yicha sinaluvchilar guruhi natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, olingan natijaga ko'ra shaxsning o'z kuchiga va qobiliyatlariga haddan tashqari ortiq baho berishi, har qanday qiyinchiliklarni engishga o'zini tayyor deb o'ylashi, ko'tarinki ruhda orqa - oldini o'ylamay, ba'zan engiltaklik bilan har qanday to'siqlarga qarshi borishdan qo'rqmasligi, o'ziga haddan ortiq ishonishi kabi xislatlari va barqaror e'tiqodlari ustanovkasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kasb tanlashda boshqalarga bog'liqlik yo'nalishi sinaluvchilar guruhida ahamiyatli darajani tashkil qiladi. Bu shaxsning ijtimoiy etilmaganligi bilan bog'liq ravishda erkin va mustaqil bir fikrga ega emasligini, har qanday kishining maslahatlariga osonlik bilan berilishini ishonuvchanligi tufayli aniq bir kasbiy qarorga kelishda qiyinchilik sezayotganligini ifoda etadi.

Mazkur metodika orqali shaxs tiplari va ularga mos kasblarni tanlash masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Buning uchun sinaluvchilar guruxga metodika matni taklif qilinadi. Sinaluvchilardan to'plangan ma'lumotlar asosida natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinadi.



Jadval va diagrammadagi natijalarga asoslanib quyidagi mulohazalarni keltirib o'tish lozim. Unga ko'ra kasb tanlashda qat'iyatsizlik yo'nalishi sinaluvchilarda o'rta ko'rsatkichni tashkil qiladi. Bu ulardagi kasbiy shakllanish nuqtai nazaridan kelajak haqida aniq tasavvurlar mezonlarining yo'qligi, kasblar olami haqida to'liq axborotga ega emaslik, Shuningdek, o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik, bir qarorga kela olmaslik, ikkilanishlarning ko'pligi bilan tavsiflanadigan tuyg'ular hamda Shunga mos xulq-atvorlarida o'z ifodasini topadi.

Ikkinchi yo'nalish kasb tanlashda ratsionallik teranlik omili bo'lib, bu aynan mazkur yo'nalish bo'lajak kasbiy hayotni ongli ravishda ogohlik bilan belgilash, bilib turib aniq reja asosida aql bilan mustaqil ravishda harakat qilish, har qadamini obdon o'ylab donolik bilan bosish kabi ustanovkadir.

Sinaluvchilar guruhida bo'lajak kasbning istiqboliga nisbatan optimistik munosabat, barcha shakllalar ichida ustuvorligi bilan belgilanadi. Bu shaxsdagi o'z kasbiy kelajagini ideallashtirish, omad kulib boqishiga umid bog'lash, hayotdagi har qanday muammoning o'z-o'zidan hal bo'lib ketishi mumkinligiga,

YAKUNIY XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotimiz natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga keldik:

- Shaxsda kasbiy tasavvurlarni shakllanganligi kasbiy qiziqish va bo'lajak kasb to'g'risida ongli qaror qabul qilish bilan belgilanishi mumkin;

- Shaxsning o'z kuchi va qobiliyatiga ortiqcha baho berishi, o'ylamasdan qaror qabul qilishi noto'g'ri kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillardan hisoblanadi;

- Kasbiy tasavvurlarning shakllanganligi ongli kasb tanlashning mezonini bo'lib hizmat qilishi mumkin;

- O'quvchilarda kasblar haqidagi axborotlarning etarli emasligi, bu boradagi tasavvurlarning yo'qligi kasb tanlash yuzasidan qaror qabul qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;

- Shaxsning erkin va mustaqil fikrga ega emasligi kasbiy tasavvurlarning shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin;

- Shaxsda jamiyatda yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga va Shu sohada o'z mehnati, kasbga sodiqligi bilan obro'-e'tibor qozonishga intilish kuchliligi ko'zga tashlanadi;

- Shaxsning kasbiy shakllanishida qobiliyat va layoqat yo'nalishlari shaxs yo'nalganligi, qadriyat yo'nalishlari, Shuningdek, kasbiy qiziqish va moyilliklari asosiy mazmunini ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi;

- Kasb tanlashga tayyorgarlik darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri, bu har bir shaxsning kasb tanlashga bo'lgan munosabati, shaxsiy yondaShuvi nuqtai - nazarlarining shakllanganlik darajasini hisoblanadi.

- Kasb tanlashda o'quvchining o'quv fanlari doirasidagi qiziqishlari, ularni yoqtirishlari muhim rol o'ynaydi;

- Kasbiy yo'nalganlik o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlariga ya'ni muayyan o'quv fanlarini o'zlashtirish qobiliyatlariga, layoqatlariga, Shu fanlar doirasida olayotgan real baholariga bog'liq bo'ladi;

III. BOB BO'YICHA XULOSA

Tadqiqod ishimizning III bobida o'quvchilarning kasb tasavvurlarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni aniqlashga harakat qilindi. Unga ko'ra kasb tanlashda aqliq qarorlarni bajarish imkoniyati bo'lganlar bilan korreksiya dastur asosida ish olib borildi. Shuningdek, trening mashg'ulotlaridan soni, uzoq vaqt bilan qayta diagnostika ishi amalga oshirildi. To'plagan ma'lumotlarga asoslangan holda natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Shunga ko'ra quyidagi xulosalar ishlab chiqiladi:

- Kasbiy tasavvurlarni shakllanishida shaxsning qiziqish qobiliyat va imkoniyatlari asosiy o'rinni egallaydi;
- Kasbiy tasavvurlarni shakllanishi shaxsning individual psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Outputs away part of their current income for saving include the following:

Influences on household savings

[4]

Spending on education and health is a small proportion of overall spending in the UK. Explain two reasons why this might

[2]

With reference to the chart, describe how spending patterns in the UK might be different from those in less economically developed countries such as Haiti or Bangladesh.

Family spending in the UK, financial year ending March 2016

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". – Toshkent, 1998.
2. I.A.Karimov. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin". – Toshkent, 1998.
3. I.A.Karimov. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz". – Toshkent, 2000 yil.
4. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". – Toshkent, 1999 yil.
5. I.A.Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori". – Toshkent, 1997 yil.
6. A. Kirg'izbaev. "Yoshlar tarbiyasida ma'naviyatning qudratli kuchi". – Toshkent, 2001 yil.
7. R.I.Sunnatova, N.A. Sog'inov. Amaliyotchi psixologlar uchun qo'llanma. – Toshkent, 1999 yil.
8. B.R.Qodirov, I.B.Qodirov. "Kasbiy tashxis metodikalari to'plami". – Toshkent, 2003 yil.
9. K.M.Turievich. "Professionalnaya prigodnost i osnovnye svoystva nervnoy sistemy". – Moskva, 1970 yil.
10. E.A. Golubeva. «Kompleksnoe issledovanie sposobnosti», 1986 yil.
11. V.V.Grishin, P.V.Lushin. «Metodiki psixodiagnostiki va uchebno – vospitatelno protsesse». – Moskva, 1998 yil.
12. K.M.Gurevich. «Professionalnaya prigodnost i osnovnye svoystva nervnoy sistemy». – Moskva, 1970 yil.
13. V.I.Jukovskaya. «Psixofiziologicheskie osnovy vybora professii». – Minsk, 1978 yil.
14. J.T.Tulenov. «Qadriyatlar falsafasi». – Toshkent, 1998 yil.
15. N.A.Kirillova. "Sennostnye orientatsii v strukture integralnoy individualnosti starshix shkolnikov", 2000 yil.
16. E.A.Klimov. "Individualnye stil deyatel'nosti v zavisimosti ot tipologicheskix svoystv nervnoy sistemy", 1969 yil.
17. E.A.Klimov. "Kak vybrat professiyu". – Moskva, 1990 yil.

- Kasb tanlashda kuchli omillardan bo'lgan ijtimoiy muhit ham shaxsning kasbiy yo'nalganligida salmoqli o'rin egallaydi.

Tavsiyalar

O'tkazilgan tadqiqotimiz natijalari va xulosalarga muvofiq quyidagi **tavsiyalarni** keltirish mumkin:

- O'quvchi-yoshlarni ongli kasb tanlash ishlarini jonlantirish va bunda psixolog bilan birgalikda ota-onalar va fan o'qituvchilarining ham jalb etish zarur;

- Ongli kasb tanlashga yordam beruvchi "ochiq eshiklar" va o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish va bu jarayonga etakchi mutaxassislarni jalb qilish maqsadga muvofiq;

- O'quvchilarda yoshligidan boshlab kasblar olamiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadga muvofiq;

- O'quvchi-yoshlar o'rtasida ongli kasb tanlashga erishish uchun individual va guruhii maslahatlarni tashkil qilish kerak;

- O'quvchilarda kasb olami bilan tanishish jarayonida o'zi sevgan kasb xususiyatlari bilan yaqinroq tanishish maqsadida o'yin, kasb doirasida o'zini sinab ko'rish imkoniyatini yaratish, buning uchun kasblar olamiga taalluqli rolli o'yinlar tashkil etish va amaliyot tashkil etish zarur;

- O'quvchi-yoshlarimiz kasblar to'g'risida etarli ma'lumotga ega emaslar. Bizning sharoitda o'rta maktablarda bu borada mukammal bilimlar berish hanuzgacha yo'lga qo'yilmagan. Shu bois kasbiy tasavvurni aniqlashda o'quvchilarning maktabda o'qitiladigan fanlarga yaqinlik, umumiy aloqadorlik darajalarini o'rganish muhim sanaladi.

33. V.F.Safin. «Vvedenie v psixodiagnostiku lichnosti shkolnika». – Ufa, 1990 yil.
34. I.G.Senin. «Oprosnik terminalnix sennostey». – Yaraslavl.: «Sodeystvie» 1991 yil.
35. Z.V.Sikevich. «Sposobnosti v sistemi professionalnoy orientatsii uchashesya molodeji». – Termiz, 1992.
36. Yu.V.Ukke. «Diagnostika soznatelnosti vibora professii u yaponskix shkolnikov». 1990 yil.
37. F.Fransella, D.Bonnister. «Novie metod issledovanie lichnosti». – Moskva, 1987 yil.
38. V.V.CHebisheva «Psixologiya trudovogo obuchenie ». – Moskva, 1969 yil.
39. V.D.Shodrikov. «Problema professionalnix sposobnostey». 1982 yil.
40. SH.Qurbonov. «Jamiyatni erkinlashtirish va ta’limning yangi qadriyatlari». – Toshkent, 2000 yil.
41. N.Sog’inov, F.Xabubullaev. «O’quvchilar bilan olib boriladigan kasb tanlash, kasbga yo’llash ishlarini tashkil qilishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish». – Toshkent, 1996 yil.
42. F.X.Rashidov, A.R.Xodjaboev, R.K.Jo’raev, X.F.Ma’sudov va boshqalar. «O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limdagi tayyorlov yo’nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi». – Toshkent, 2000 yil.
43. K.B.Qodirov. «SHaxs yo’nalganligini aniqlash». – Toshkent, 1998 yil.
44. K.B.Qodirov. «Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis». – Toshkent, 2001 yil.
45. K.B.Qodirov. «Qadriyatlar yo’nalishlari savolnomasi». – Toshkent, 2000 yil.
46. B.R.Qodirov. «Sinf zukkolarini tanlash metodikasi». – Toshkent, 1998 yil.
47. B.R.Qodirov. «Qiziqishlar haritasi». – Toshkent, 1991 yil.

18. YA.L.Kolominskiy. "Chelovek sredi lyudey". – Moskva, 1970 yil.
19. I.M.Kondakov. "Diagnostika professionalnykh ustanovok podrostkov". – 1997 yil.
20. I.M.Kondakov. "Individualno – psixologicheskie osobennosti podrostkov v vibore professii". – Moskva, 1989 yil.
21. B.V.Kulagin. «Osnovi professionalnoy psixodiagnostiki». – L.: 1984 yil.
22. E.A.Klimov. "Kak vybrat professiyu". – Moskva, 1990 yil.
23. N.D.Levitov. «Voprosi psixologii haraktera». – Moskva, 1952 yil.
24. A.F.Kudryashova. «Luchshie psixologicheskie tesy dlya prof otbora i proforientatora», 1992 yil.
25. A.V.Petrovskogo. «Obshaya psixologiya». – Moskva, 1986 yil.
26. A.K.Osnitskiy. «Psixologiya samostoyatel'nosti». – Moskva, 1996 yil.
27. O.Ya.Polskaya. «Psixologicheskiy praktikum v shkole». – Moskva, 1984 yil.
28. A.D.Sazonov, N.I.Kolugin, A.P. Menshikov. «Professional'naya orientatsiya molodoji». – Moskva, 1989 yil.
29. M.G.Davletshina. «Psixologicheskie aspekti sovershenstvovaniya proforentatsionnoy raboti sredi molodiji». – Toshkent, 1982 yil.
30. M.G.Davletshina, G.B.Shoumarorov. «Psixologi – pedagogicheskie ospekti proferentatsii i trudovogo obucheniya uchashixsya v svete osnovnix napravleniy reformy obshche-obrazovatel'noy i professional'noy shkoli». – Toshkent, 1987 yil.
31. Psixologiya diagnostika. Sbornik. – Moskva, 1975 yil.
32. R.Sunnatova, U.Parpiev. «Kasbga yo'naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar». – Toshkent, 2001 yil.

Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasining savolnomasi

(V.Smekal va M.Kuchera)

Ushbu test 27 savoldan iborat bo'lib, ularning har biriga uch variantda javob berishingiz mumkin. (A,V,S tarzida).

Savolni diqqat bilan o'qing. Javoblar orasida Sizning ichki dunyoingizga eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz – "V"). Endi javob varaqasining tegishli satridan "V" harfini topib, uning chap yoniga ("to'g'ri keladi" degan so'zlar ostiga) belgi ("+") qo'ying.

O'sha savolni yana bir marta o'qing. Endi qolgan ikki javob varianti ("A" va "S") orasidan Sizning nazaringizga eng kam to'g'ri keladiganini yoki Siz uchun qimmatli past bo'lganini tanlang (faraz qilamiz – "A"). So'ngra javob varaqasining yana o'sha satridan "A" harfini topib, uning o'ng yoniga ("to'g'ri kelmaydi" so'zlari ostiga) belgi ("+") qo'ying. Uchinchi javob varianti esa (bizning misolda – "S") hech qayerda belgilanmaydi.

Demak, har bir satrga satrga ikkitadan "+" belgisini qo'yishingiz kerak bo'ladi: birinchisi – A, V yoki S variantlaridan birining "to'g'ri keladi" ustunidagi katakchasiga, ikkinchisi shu variantlarning "to'g'ri kelmaydi" katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Ba'zan bir vaqtning o'zida ikkala yoki uchchala variant javoblari tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va esda saqlang, eng to'g'ri javob xayolga birinchi kelgan javobdir.

Diqqat, boshladik!

1. Men, qachonki:

- A. Qilayotgan ishimni atrofdagilar qo'llab-quvvatlashsa;
- V. Biror ishni o'ziga ma'qul, ko'nglimdagidek qilib bajarsam;
- S. Atrofimda yaxshi do'stlarim borligini his etsam;

O'zimda katta qanoatlanish hosil qilaman.

48. E.G'.G'oziev, Q.Q.Momedov. "Kasb psixologiyasi". – Toshkent, 2003 yil.
49. Super D.E. "Vacational development": A framework of research. N.Y, 1957.
50. Super D, Bahn M.Y. Occupational psychology. L., Tavistock, 1957.
51. Crites J.O. "Career maturity inventory". Monterey, 1978.
52. Crites J.O. "Career development processes". – Boston, 1974.

- V. O'rtoqlarim bilan munosabatim buzilishini;
- S. Atrofdagilarning mening tanqid qilishlarini;

Juda istagan bo'lardim.

8. Eng ayanchli ahvol shundaki, agar o'qituvchi:

- A. Ba'zi o'quvchilarning yoqtirmasligini, ularning ustidan kulishini va kinochsini yashira olmasa,
- V. Kollektivda raqobatchilik kayfichtini yaratsa;
- S. O'zi dars bergan fanni bilmasa.

9. Bolaligimda eng yaxshi ko'rganim:

- A. Ko'proq o'rtoqlarim bilan o'ynash edi;
- V. Qum to' dasidan uychar yasab zavqlanish edi;
- S. Biron narsa uchun meni maqtashlari edi.

10. Quyida ta'rifi berilgan kishilarga o'xshashni juda-juda xohlardim:

- A. Hayotda katta lavozimlarda ishlagan kishini;
- V. O'z ishiga chinakam berilgan kishini;
- S. Do'stonaligi va oqko'ngilligi bilan ajralib turgan kishi.

11. Menimcha, maktabning birinchi galdagi vazifasi:

- A. Hayotdagi to'siqlar, muammolarni hal qilishni o'rgatish;
- V. O'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- S. Odamlar bilan o'zaro hamkorlik qilishga yordam beradigan sifatlarini tarbiyalash.

12. Bo'sh vaqtim ko'proq bo'lganda, nazarimda, undan quyidagicha foydalangan bo'lar edim:

- A. Do'stlarim bilan suhbatlashar edim;
- V. Ko'proq dam olib, xordiq chiqargan bo'lardim;
- S. O'zim sevgan ishlar bilan, mustaqil o'qish, o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan bo'lardim.

13. Katta yutuqlarni qo'lga kiritishim mumkin, agar:

- A. Chehrasi iliq bo'lgan kishilar bilan ishlasam;
- V. Bajarayotgan ishim menga qiziqarli bo'lsa;
- S. Qilgan ishim yaxshi rag'batlantirilishi mumkin bo'lsa.

14. Menga juda yoqadi, agar:

2. Bordi-yu, kelajakda sportchi (futbolchi, volleybolchi) bo'lganimda edi:

A. O'yin taktikasiga ishlov beruvchi kishi – trener bo'lishni istardim;

V. Mashhur o'yinchi bo'lishni istardim.

S. Komanda kapitani etib tayinlanishimni istar edim.

3. Haqiqiy pedagog quyidagi xususiyatga ega bo'lishi kerak:

A. O'quvchilarga alohida yondashib, har biri bilan qiziqsin;

V. O'quvchilarda predmetga nisbatan shunday qiziqish uyg'otsinki, ular Shu predmet doirasida ko'proq bilim olishga intilsinlar;

S. Sinf jamoasida Shunday muhit yaratsinki, unda har kim qo'rqmay o'z fikrini ochiq-oydin bayon eta olsun.

4. Men:

A. O'zlari bajargan ishdan zavq oladigan kishilarni juda yoqtiraman;

V. Jamoada ko'pchilik mehnat qilishni yoqtiradigan kishilarni yaxshi ko'raman;

S. Topshirilgan ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq bajarishga intilgan kishilarni yoqtiraman.

5. Agar mening do'stim:

A. Odamlarni tushunadigan, kerak bo'lganda qo'lidan kelguncha yordam beradigan bo'lsa;

V. Har doim so'zining ustidan chiqa oladigan, sadoqatli bo'lsa;

S. Aqlli va har narsaga qiziqadigan inson bo'lsa;

Qanoatlanish hosil qilar edim.

6. Eng yaqin do'st shunday kishiki, u:

A. Men bilan yaxshi munosabatda bo'lsa;

V. Eng qiyin paytda ham ishonchni oqlaydigan bo'lsa;

S. Katta hayotiy tajriba va yutuqlarga erishgan bo'lsa.

7. Men:

A. Ishimni o'ngidan kelmasligini;

- V. Obro'-e'tiborli, viqor-salobatli bo'lishi;
S. O'ziga va boshqalarga talabchan bo'lishi.

22. Bo'sh vaqtimda havas bilan shunday kitoblar o'qigan bo'lardimki, ular:

A. Do'st orttirish, odamlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish sirlari haqida yozilgan bo'lsin.

V. Mashhur va ko'p qirrali insonlarning hayoti to'g'risida yozilgan bo'lsin;

S. Fan-texnika taraqqiyotining eng yangiyutuqlari to'g'risida yozilgan bo'lsin.

23. Muzika sohasida qobiliyatim bo'lganda edi:

A. Dirijyor bo'lgan bo'lar edim.

V. Bastakor bo'lardim.

S. Qo'shiqchi bo'lardim.

24. Istardimki:

A. Qiziqarli bir konkurs o'ylab topib, uning rejasini tuzsam;

V. Biror bir konkursda g'olib chiqsam;

S. O'zim konkurs tashkil etib, uni olib borsam.

25. Birinchi navbatda bilishim zarur:

A. Nima ish bajarishim kerakligini;

V. Maqsadga erishish yo'llarini;

S. Maqsadga erishish uchun atrofda odamlardan qanday foydalanish kerakligini.

26. Inson shunga intilishi kerakki:

A. Boshqalar undan xursand bo'lsinlar;

V. Unga buyurilgan ish, avvalo, vijdonan, chin ko'ngildan bajarilsin;

S. Qilgan ishi uchun hech kimdan gap eshitmasin.

27. Bo'sh vaqtimda yaxshi dam olaman:

A. Do'stlarim bilan suhbatlashganda;

V. Qiziqarli filmlarni tomosha qilib, xordiq chiqarganda;

S. O'zim sevgan ish bilan mashg'ul bo'lganda.

- A. Odamlar meni qadrlashsa;
- V. Biror ishni yaxshilab, oxiriga etkazib bajarsam;
- S. Vaqtimni do'stlar orasida qiziqarli o'tkazsam.

15. Agar men haqimda gazetaga yozishga qaror qilishsa, men istardimki:

- A. Biror sohada erishgan yutuqlarimni maqtab yozishsin;
- V. Men bajargan ishlar haqida gapirilsin;
- S. Albatta men o'qiyotgan yoki ishlayotgan jamoa haqida bayon etilsin.

16. Men juda yaxshi o'qigan bo'lar edim, agar o'qituvchi:

A. Meni tushunsa va o'zligimni nazarga olib, to'g'ri munosabat qila olsa;

- V. Predmetlarga nisbatan qiziqish uyg'ota olsa;
- S. Dars mavzularini bahs-munozarali qilib yorita olsa.

17. Men uchun eng yomoni:

- A. G'ururimning poymol qilinishi;
- V. Zarur ishimning o'ngidan kelmasligi;
- S. Do'stlarimdan ajrab qolishim.

18. Menimcha, hayotda eng qadrli narsa:

- A. Muvaffaqiyat;
- V. O'zaro kelishuvda, hamkorlikda ishlash imkoniyati;
- S. Kundalik hayotda ijodkorlik, hur fikrlilik.

19. Men yoqtirmaydigan kishilar:

- A. O'zini boshqalardan past ko'ruvchilar;
- V. Badjahl, tez-tez janjal chiqaruvchi kishilar;
- S. Har qanday yangilikka qarshi chiqadigan odamlar.

20. Men uchun quvonch bag'ishlaydi:

- A. Hamma uchun muhim bo'lgan ish bilan shug'ullanish;
- V. Yor-do'stlarimning ko'p bo'lishi;
- S. Odamlarni hayratda qoldirish, hammaga yoqish.

21. Menimcha, rahbar kishi quyidagi xususiyatga ega bo'lishi shart:

- A. Qo'l ostidagilarga juda yaqin bo'lishi, ularni tinglay bilishi.

5. Tengdoshlarim qatori biron bir kasb egasi bo'lsam shu men uchun kifoya.

II- topshiriq

1. Kasb tanlashda qat'iyatli emasman.
2. Kasbni to'g'ri tanlash uchun aniq reja tuzib olishim kerak deb o'ylayman.
3. Bo'lajak kasbimga munosib bo'lishim uchun ko'p xislatlarimni o'zgartirishga tayyorman.
4. Mendagi xislatlar har qanday kasbga mos keladi.
5. Mening bo'lajak kasbim boshqalarni ham bezovtalantirsa o'zimni bardamroq his etaman.

IV- topshiriq

1. Bo'lajak kasbni tanlashda nimalarga (o'z imkoniyatlarim, ota-onam istagi va hokazo) asoslanishimni bilmay ikkilanaman.
2. Turli kasblarga har xil odamlar tomonidan berilgan ijobiy yoki salbiy tavsiflarga ishonaverish maqsadga muvofiq emas.
3. Xudo xohlasa bo'lajak kasbim mening barcha imkoniyatlarimni ro'yobga chiqarishimga yordam beradi.
4. Yaxshi mutaxassis bo'lishim uchun barcha imkoniyatlarim etarli.
5. Menimcha yoshlarning bo'lajak kasblarini tanlashlari uchun odatda kattalar yaxshi sharoit yaratib berishmaydi.

V- topshiriq

1. Kasbiy hayotimni nimadan qanday boshlashimni mutlaqo bilmayman.
2. Bo'lajak kasb allaqachon tanlangan bo'lsa ham bu mavzu ustida qayta-qayta o'ylab ko'rilsa zarar qilmaydi.
3. Tezroq biror joyda ishlab erkinlikka erishishni juda ham xohlayman.
4. Kasbiy hayotda o'zimning munosib o'rnimni topishimga hech qanday shubham yo'q.

Kasbiy ustanovkalarini aniqlash metodikasi savolnomasi

(I.M.Kondakov)

To'rtburchak ichida berilgan jummalarni diqqat bilan (lozim bo'lsa qayta-qayta) o'qib chiqing.

Har bir topshiriq kasb tanlayotgan yoshlarning ruhiy holatini tavsif etuvchi 5 ta jumladan iborat. Ularning ba'zilari sizdagi vaziyatga ko'proq mos kelsa, boshqalari sizdan uzoqroq yoki sizni tavsif etmaydi. Sizdan mazkur jummalarni o'zingizga yaqin-uzoqligiga ko'ra tartiblab chiqish so'raladi. Ya'ni sizni eng ko'p harakterlaydigan jumlaning tartib raqami javob varaqasining 1-katakchasiga, ikkinchi navbatda mos keladigan jumlaning tartib raqami esa 2-katakchaga yozib qo'yiladi va hokazo. Demak sizga nisbatan eng "uzoq" fikr ifoda etilgan jumlaning tartib raqami-5 katakchaga kiritiladi.

Marhamat, boshladik!

I-topshiriq

1. Kasblar olamini yaxshi bilmayman
2. Kasb tanlashda o'tkinchi havaslardan qochishni afzal ko'raman.
3. O'zimga mos kasbni to'g'ri tanlash uchun ko'p narsalardan kechishga roziman.
4. Har qanday kasbning uddasidan chiqa olaman.
5. Kasb tanlashim haqida menga berilgan har xil maslahatlarni diqqat bilan tinglayman.

II- topshiriq

1. Kasbni to'g'ri tanlash uchun yordamga muhtojman.
2. Har xil o'y-xayollar bilan vaqtni bekor ketkazmasdan bo'lajak kasbimga aniq qadamlar qo'yish zarur deb o'ylayman.
3. Nasib qilsa tanlagan kasbim o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.
4. Kelajakda yuksak malakali mutaxassis bo'lishimga shubham yo'q.

4.Kelajakda kasbiy hayotimda favqulodda bir yangilik kiritmoqchiman.

5.O'qishni davom ettirish imkoni bo'lsa edi, ish topishga hech qachon shoshilmagan bo'lardim.

5.Kasb tanlashda odamlarning maslahatlariga har xil hayotiy o'rnaklarga ko'p e'tibor beraman.

VI- topshiriq

1.Gohida kasb tanlashda o'ta beqarorligimdan xafa bo'lib ketaman.

2.Kasb tanlash va kasbiy mahorat sirlarini chuqur o'rganishni juda muhim deb bilaman.

3.Ba'zan bo'lajak kasbimning menga ochadigan imkoniyatlarini o'ylab ko'nglim yorishib ketadi.

4.O'zimdanda kechib bo'lsa ham kasbiy hayotimda uchraydigan har qanday to'siqni albatta engib o'taman.

5.Hozircha "katta bo'lishga" (ya'ni biron kasb egasi bo'lishga) intilishni unchalik zarur emas deb o'ylayman.

VII- topshiriq

1.Omadsizligim tufayli kasb tanlashda ham baxtim chopmaydi deb qo'rqaman.

2.Kasb tanlashda kasblarning tashqi "jilo"siga uchishni noto'g'ri deb bilaman.

3.Istiqboli keng bo'lgan kasbni tanlashda birinchi navbatda qalbim amriga ishonaman.

4.Men tanlagan kasbim qat'iy bo'ladi, uni hech qachon o'zgartirmayman.

5.Agar atrofdagilar mening biror bir kasbni egalashim ustida qattiq turib olishsa ehtimol ularga ko'nishim mumkin.

VIII- topshiriq

1.Bo'lajak kasbim to'g'risida aniq bir tasavvurga ega emasman.

2.Kasb tanlashda hissiyotlarga emas, fikr-mulohazaga tayanishni ma'qul ko'raman.

3.Umid qilamanki, bo'lajak kasbim menga baxt keltiradi.

**Norimbetov Turg'unboy Buharovich
Nazarova Marg'uba Gulamovna**

**O'SPIRINLARDA KASBIY TASAVVURLAR
SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Ma'ruza mashg'ulotida foydalanish uchun uslubiy qo'llanma

Muharrir: Yorqin Qudratulloh
Sahifalovchi Sanjar G'afurov

Nashr. litsenziyasi – AL №015.20.07.2018.

Bosishga ruxsat etildi 08.09.2021.

Bichimi 60x84 ^{1/16}

«Times New Roman» garniturası.

Nashr b.t. 2. Shartli b.t. 4,42.

Adadi 100 ta.

Original-maket «Zamin nashr» MCHJ da
tayyorlandi va chop etildi.

100053, Toshkent sh. Bog'ishamol kochasi, 160.

Tel: 71-235-44-86/82.



ISBN 978-9943-7425-4-3



9 789943 742543